

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**2023-2024 O'QUV YILIDA IJOD  
MAKTABLARINING 11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN**

# **ONA TILI**

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH  
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



## Tushuntirish xati

Mazkur spesifikatsiyasining maqsadi bitiruvchi o'quvchilarning ona tili fanidan bilim darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan savolliklar strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasida qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

11- sinfni tamomlagan o'quvchilar ona tili fanidan ta'lim dasturi bo'yicha ma'lum darajadagi kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy davlat attestatsiyasi yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir matn va undan kelib chiqadigan savollar, yopiq savollar ona tili fani bo'yicha o'quvchilarning 5-11-sinflarda o'zlashtirishi ko'zda tutilgan mavzularni qamrab olgan. Shuningdek, baholash mezonlari ham keltirilgan.

11-sinflar uchun ona tili fanidan YDA biletleri 10 ta variantda tuzilgan bo'lib, har bir variantda 20 tadan savol o'rin olgan. Shuningdek, mavjud 20 savolning 10 tasida o'quvchilarning o'qish savodxonligi tekshiriladi. Aytish mumkinki, tavsiya etilayotgan imtihon materiallari Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilangan mavzular asosidadir.

Ijod maktablarining 11- sinf bitiruvchilari uchun Yakuniy davlat attestatsiyasi materiallari tayyorlanish jarayonida ona tili fanidan 10-11- sinflar hamda 5-9- sinflarda o'rgatilgan mavzular asos qilib olindi.

10-11- sinf ona tili darsliklarida ko'proq uslubiyat mavzusiga soat ajratilganligi sababli tanlangan matnlar she'riy, ilmiy, badiiy uslub shaklida tanlangan.

Ona tili fani bo'yicha tanlab olingan savol materiallari 10-11-sinf darsligidan hamda quyi sinf darsliklaridan olingan bo'lib, o'quvchi avvalgi sinflarda ushbu mavzularni o'zlashtirganligi inobatga olindi. Ona tili fani bo'yicha savollar o'qib tushunish, mulohazali, erkin fikrlash kompetensiyalari asosida tuzildi.

Ushbu fan yuzasidan tuzilgan savollarda imlo savodxonligi va til imkoniyatlaridan foydalanish, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash talablariga e'tibor berildi.

O'quvchi belgilangan savollarni bajarishi uchun 1 akademik soat vaqt belgilanadi.

Bitiruvchilarning ona tilidan yozgan ishlari uchun maksimal 100 ballik tizim asosida quyidagicha baholash nazarda tutilgan:

0 – 55% – “qoniqarsiz”;

56–69% – “qoniqarli”;

70–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a'lo”

baho kabi baholanadi. Bunda mos ravishda 55%gacha “Ikki”; 69%gacha “Uch”; 85%gacha “To'rt”; 100%gacha “Besh” bahoga konvertatsiya qilinishi nazarda tutilsin. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

# 11-SINF ONA TILI FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA

## SPETSIFIKATSIYASI

Ona tili	Soni	Bilish	Qo'llash	Mulohaza	To'liq javob
O'qib tushunish: Matn beriladi o'quvchi o'qib savollarga javob beradi. (10 ta)	10	1	8	1	
Til bo'limlaridan olgan bilimlarni qo'llashga doir savollar (10ta)	10	1	8	1	

### Ijod maktablarining 11-sinf bitiruvchilari uchun ona tili fanidan ta'limiy maqsadlar

Ona tili fani hamda uning nazariyasi oid o'zlashtiriladigan me'yorlar:	o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlarini bilish
	nutq uslublarining chegara va imkoniyatlarini bilish
	og'zaki va yozma nutqda so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar, grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni tanlay olish
	sinonimik va uslubiy imkoniyatlardan to'g'ri foydalana olish
	gapda so'z tartibiga rioya qilish, gap bo'laklarini turli turkumga oid so'zlar, otlashgan so'zlar, so'z birikmalari va iboralar vositasida ifodalay olish
	gap turlaridan, undalmali, kirish so'zli va birikmali, uyushiq bo'lakli, ajratilgan izoh bo'lakli gaplardan, qo'shma gap turlaridan, ko'chirma va o'zlashtirma gaplardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish
	Sifat ko'rsatkichlar — matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, matndagi xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash, o'rganilgan ifoda vositalarini o'rinli qo'llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish, ish qog'ozlarini yoza olish

**Baholash mezon:**

№	Topshiriq turi	Maksimal ball	O'quvchining olgan bali
I	O'QIB TUSHUNISH	50	
II	Ochiq savollar hamda yozma nutq	50	
	JAMI	100	

**Ijod maktablarining 11-sinf bitiruvchilari uchun ona tili fanidan Yakuniy davlat attestatsiyasi materiallarining**

**SPETSIFIKATSIYASI**

№	Ona tili fanining egallanadigan ko'nikmalari	Shakli	Bilish	Qo'llash	Muhloha
1	Matnni o'qib tushuna olish. Berilgan fikrning matn mazmuniga muvofiqligiga ko'ra baholay olish. Berilgan matndagi fikrlar xilma-xilligi hamda ost tushunchalarni ang'lay olish	Javobi yoziladigan	1	8	1
2	Ona tili nazariyasiga oid ko'nikmalarni sifatli aniqlay olish. Topshiriqlarga nisbatan til predmet va maqsdlarini to'la bilgan holda javob bera olish	Javobi yoziladigan	1	8	1

# 1-Variant

## 1-matn 1-5- savollar

**Meteoritlar** — Quyosh sistemasining sayyoralararo fazodan Yer yuziga tushadigan qattiq jismlari. *Quyosh atrofida elliptik orbita bo‘ylab parvoz etayotgan son-sanoqsiz qattiq jismlardan ayrimlarining orbitasi o‘zgarishi natijasida Yer bilan to‘qnashadi*(1). Katta tezlikda (11–75 km/sek) harakat qilayotgan bunday jismlardan massasi kichiklari (1—10 g) Yer atmosferasida meteor hodisa hosil qilsa, kattalari (1 – 1000 kg) atmosferada butunlay erib ulgurmay Yer yuziga tushadi. Bir sutkada osmondan Yerga umumiy massasi 10 t atrofida bo‘lgan turli xil kattalikdagi, qattiq holatdagi kosmik modda tushadi. Bu jismlarning yiriklari topilgan va tabiat muzeylarida saqlanmoqda. Ular Meteoritlar deb atalib, umumiy og‘irligi 500 t dan oshadi. *1920-yil Janubiy-G‘arbiy Afrikada topilgan temir Meteoritlarning (Goba) og‘irligi 50 t, 1818-yilda Grenlandiyada topilgan Meteoritlarning og‘irligi 34 t. 1947-yilda Sixo-te-Alin (Uzoq Sharq, Rossiya) ga parchalanib tushgan.* (2) Meteoritlarning umumiy og‘irligi 23 t. Meteoritlar 3 turkumga bo‘linadi: temir, tosh va toshtemir. Temir Meteoritlar topilgan barcha Meteoritlarning 4% ini tashkil etib, tarkibida 85% temir, 12% nikel, 3% kobalt va boshqa elementlar bor. Temir Meteoritlar katta kristall (oktaedrit)lardir. Ular silliq shakldagi jismlar bo‘lib, havo qarshiligi ta’sirida kristallga aylangan. *Tosh Meteoritlar topilgan barcha Meteoritlarning 92% ini tashkil etadi va, asosan, kremniy, magniy, natriy, kalsiy, temir, alyuminiy va boshqa elementlar oksididan iborat.*(3) Ular tog‘ jinslarini eslatadi. Toshtemir Meteoritlar topilgan barcha Meteoritlarning 4% ini tashkil etadi. Meteoritlarning zichligi 2,5 dan 8,8g/sm<sup>3</sup> gacha. Meteoritlarning atmosferasidan Yerga maydalanib tushish hodisasi Meteoritlar yomg‘iri deyiladi. Masalan, 1947-yildagi Sixote-Alin meteorit yomg‘iri tarkibida o‘rtacha quyidagi miqdorda nodir metallar bor (1 t Meteoritlarda g hisobida): ruteniy 10, rodiiy 5, palladiy 10, ku-mush 5, osmiy 3, iridiy 5, platina 20, oltin 5 va boshqa. *Meteoritlardagi elementlar tarkibi Yerdagi elementlar tarkibi bilan deyarli bir xil.*(4)

1. Matn mazmuniga mos shakllantirilmagan jumlani aniqlang. Berilgan 4 ta javobning har biri yakuniga “mos” yoki “mos emas” jumlasidan birini tegishlilikicha kiriting. (Umumiy 5 ball)

1. Temir Meteoritlar katta kristall (oktaedrit)lardir. Ular silliq shakldagi jismlar bo‘lib, havo qarshiligi ta’sirida kristallga aylangan.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Bir sutkada osmondan Yerga umumiy massasi 10 t atrofida bo‘lgan turli xil kattalikdagi, qattiq holatdagi temir meteoroidlar tushadi.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. 1947-yildagi Sixote-Alin meteorit yomg‘iri tarkibida o‘rtacha miqdorda nodir metallar bor.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Meteoritlarning atmosferasidan Yerga maydalanib tushish hodisasi Meteoritlar yomg‘iri deyiladi.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Matn mazmuniga mos shakllantirilgan jumlani aniqlang. Berilgan 4 ta javobning har biri yakuniga “mos” yoki “mos emas” jumlasidan birini tegishlilikicha kiriting. (Umumiy 5 ball)

1. Meteoritlardagi elementlar tarkibi Yerdagi elementlar tarkibi bilan aynan mos keladi.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Tosh Meteoritlar katta kristall (oktaedrit)lardir.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Tosh Meteoritlar tarkibi faqat kremniy, magniy, natriy, kalsiy, temir, alyuminiy elementlari oksididan iborat.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Tosh Meteoritlar topilgan barcha Meteoritlarning 92% ini tashkil etadi .

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Matnda uslubiy xatolik kuzatilgan raqamlangan jumla(lar)ni ko‘chirib yozing va uslubiy xatolikni aniqlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

4. Matn mazmuniga mos shakllantirilgan jumlanani aniqlang. Berilgan 4 ta javobning har biri yakuniga “mos” yoki “mos emas” jumlasidan birini tegishlilikicha kiriting. (Umumiy 5 ball)

1. Toshtemir meteoroidlar topilgan meteoroidlarning eng kami bo‘lib, tog‘ jismlarini eslatadi.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Toshtemir meteoroidlar silliq shakldagi jismlar bo‘lib, havo qarshiligi ta‘sirida kristallga aylangan.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. 1—10 g massadagi kichik meteoroidlar Yer atmosferasida meteor hodisa hosil qiladi.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Tosh Meteoritlar topilgan barcha Meteoritlarning 85%ini tashkil etadi va, asosan, kremniy, magniy, natriy, kalsiy, temir, alyuminiy va boshqa elementlar oksididan iborat.

Javob \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

5. Matnda ajratib ko‘rsatilgan 4-gapni ko‘chirib yozing hamda sintaktik tahlil qiling.

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

2-matn. 6-10-savollar

### **Chekishning zararli oqibati**

I. Tamakida nikotin degan zaxarli modda bo‘lib, ayniqsa, **yosh** o‘smirlar uchun juda zararli hisoblanadi. Tajribadan ma‘lumki, ikki tomchi nikotin itni shu ondayoq o‘ldiradi. Akademik M.A. Belenkovning ta‘kidlashicha, bir necha tomchi nikotin **katta** yoshdagi **sog‘lom** odamni ham o‘ldiradi.

II. Tamakida nikotindan tashqari boshqa bir qator zaharli moddalar ham bor. Nikotin zahari dastlab bosh miya, markaziy nerv sistemasi, yurak, o‘pka, buyrak, oshqozon-ichak, hazim organlariga ta‘sir qilib, keyinchalik sil, zotiljam, bronxit, astma, yurak kasalliklari, oyoq og‘riqi, gastrit, oshqozon yarasi,

rak va boshqa turli tuman kasalliklarni vujudga keltiradi. Shunga ko‘ra bu kasalliklarga kashandalar ko‘proq uchraydi.

III. Mashhur yozuvchi Gyote 50 yil tamaki chekip shu xulosaga keldi: “Tamaki aqilni kamaytiradi, tamaki faqat **ishyoqmas**, dangasalar uchun kerak”. Mashhur shaxmatchi Alyoxin shunday deydi: “Nikotinning miyaga ta’siri orqali aql pasayadi, kishining mehnat qobiliyati yo‘qoladi”. (124 so‘z)

6. I va III ustunda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning antonimlarini toping. Ushbu topshiriqda jami 4 ta so‘zning antonimini topish kerak va belgilangan joygan moslab ko‘chirish zarur.

(Umumiy 5 ball)

1) yosh	A) kichik
2) katta	B) dangasa
3) sog‘lom	C) bemor
4) ishyoqmas	D) qari
	E) mehnatsevar

Javoblar:

1. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)
2. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)
3. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)
4. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

**7. Shunga ko‘ra bu kasalliklarga kashandalar ko‘proq uchraydi.** Ushbu gapdagi ot so‘z turkumiga oid so‘zlar gapda qanday gap bo‘lagi bo‘lib kelyapti? 5 xil gap bo‘lagidan qaysi(lari)nisi ot so‘z turkumi bilan ifodalanayotganini yozing. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

**8. Berilgan fikrlarni matn asosida to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tegishli ustunga ko‘rsating.**

(Umumiy 5 ball)

T/r	Tushunchalar	To‘g‘ri (A)	Noto‘g‘ri(B)	Ball
1	Ikki tomchi nikotin itni shu ondayoq o‘ldiradi.			1
2	Tamaki aqlni kamaytiradi, u faqat ishyoqmas dangasalar uchun kerak.			1
3	Bir tomchi nikotin katta yoshdagi sog‘lom odamni ham o‘ldiradi.			1
4	Nikotin zahari faqat bosh miya va markaziy nerv sistemasiga ta’sir qiladi.			1
5	Kashandalar bronxit, astma, gastrit, oshqozon yarasi, sil, zotiljam kasalliklariga ko‘proq uchraydi.			1

9. Matnda qaysi so‘zlar imlosida xatolik uchraydi? Avval so‘zning matnda xato yozilgan variantini, so‘ng shu so‘zning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsating. (Umumiy 5 ball)


T/r	So‘zning matndagi xato berilgan shakli	Shu so‘zning imloviy to‘g‘ri yozilishi	Ball
-----	--	--	------

1			1
2			1
3			1
4			1
5			1

10. Matnda qatnashgan qo'shma so'zlar haqidagi ma'lumotlarni "Ha" yoki "Yo'q" tarzida baholang. Ifodaning mosini doiracha ichiga oling. (Umumiy 5 ball)

T/r	Hukmlar	Javobingiz	Ball
1	Qo'shma so'z to'ldiruvchi vazifasini bajargan.	HA/YO'Q	1,25
2	Ot+fe'l shaklidagi qo'shma fe'l mavjud.	HA/YO'Q	1,25
3	Qo'shma fe'llarning qo'shib yozilishi kuzatiladi.	HA/YO'Q	1,25
4	Qo'shib yoziladigan qo'shma ot mavjud.	HA/YO'Q	1,25

11. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing. (5 ball)



Javob:

---

12. Berilgan gapda qo'llanilishi lozim bo'lgan tinish belgilarining to'g'ri ketma-ketligini yozing. (5 ball)

*Nima ham berardim men senga dunyo  
Sening bozorlaring boyvuchcha kelin*

J: \_\_\_\_\_

13. Gapda qaysi qo'shimchanning qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilgan?

*Bugun darsda ishtirok etgan yigirmata o'quvchilarning hammasi faollikni qo'ldan bermadi.*  
(5 ball)

J: \_\_\_\_\_

14. Gapdagi ajratib ko'rsatilgan birlikning sintaktik vazifasini yozing. *Bundan ikki yil oldin saytimizda temir beton, narkoz, botoks, sinmas shisha kabi ixtirolar tasodifan qilinganligi to'g'risida yozgan edik.*  
(5 ball)

J: \_\_\_\_\_

15. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishini tahlil qiling. *Hech shubhasiz, istiqloq yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlar amalga oshirildi, mard va oliyjanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi.*  
(Umumiy 5 ball)

a) ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi so'zga tobelangan? (2,5 ball)

J: \_\_\_\_\_

b) ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi so'zlar bilan teng aloqada? (2,5 ball)

J: \_\_\_\_\_

16. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.



(Umumiy 5 ball)

1. Xayollar og‘ushin yaxshi ko‘raman.

2. Hayotda amalga oshmagan yumush tushda sodir bo‘lishi mumkin.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin? (2,5)

J: \_\_\_\_\_

b) natijada qo‘shma gapning qaysi turi hosil bo‘ladi? (2,5 ball)

J: \_\_\_\_\_

17. Ota-ona... keyin qarindoshlar... -urug‘lar qatoridagi mehri... odam bu do‘stdir.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi qo‘shimchalarni qo‘ying hamda ularning vazifasiga ko‘ra turini yozing.

(Umumiy 5 ball, topshiriq to‘liq bajarilmagan har qanday holatda 0 ball)

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

18. Atrofda bo‘layotgan voqealarni chuqur tahlil qilish kerak, aks holda yolg‘onga aldanib umringiz o‘tib ketadi.

Ushbu gapda qatnashgan fe‘llar haqida berilgan ma‘lumotlarni “ha” yoki “yo‘q” tarzida ifodalang hamda mos javobni doiracha ichiga oling.

(Umumiy 5 ball)

1) hozirgi zamon sifatdoshi qatnashgan. HA/YO‘Q (1,25 ball)

2) sabab ravishdoshi qatnashgan. HA/YO‘Q (1,25 ball)

3) qo‘shma fe‘l sifatdosh bo‘lib kelgan. HA/YO‘Q (1,25 ball)

4) ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi qatnashgan. HA/YO‘Q (1,25 ball)

19. Yoz katta davlat-la va soz o‘tmoqda.

Ushbu gapda shakldoshiga ega bo‘lgan har bir so‘z asosining shakldoshi ishtirokida alohida-alohida 4 ta gap tuzing va yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

20. Quyida berilgan so‘zlarning uchinchisini yozing, natijada sinonimik qator hosil bo‘lishiga erishing.

(Umumiy 5 ball)

A) osmon – falak – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

B) to‘satdan – daf‘atan – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

C) bemor – kasal – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

D) yalqov – dangasa – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

Tekshiruvchi: \_\_\_\_\_

## 2-Variant

### I. O‘QIB TUSHUNISH:

1-matn. (1-5-savollar)

Hozirgi davrda prokrastinatsiyaga duch kelmagan, bundan aziyat chekmagan insonlar juda kam bo‘lsa kerak. Ammo biz uning sabablarini, aslida qanday oqibatlarga olib kelishini bilamizmi?

Psixologiyada prokrastinatsiya tushunchasi – ma’lum bir insonning, biror ishni juda muhim va shoshilinch bo‘lishiga qaramay, doimiy tarzda ortga surib boraverishini anglatadi. «Prokrastinatsiya» so‘zining kelib chiqishi ham procrastinare – “ertaga qoldirish” so‘zidan kelib chiqqan. Ammo bu shunchaki ishni ortga surish emas. Bunday holat, odatda, insonni muammolarga boshlaydi, stress keltirib chiqaradi, samaradorligini pasaytiradi, aybdorlik hissini uyg‘otadi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini kamaytiradi.

Ushbu sindromdan aziyat chekayotgan inson – “procrastinator” deb ataladi. Aksariyat tadqiqotchilar bunday insonlarni ikki turga ajratadi:

passiv – ular ishni ortga surishni xohlashmaydi, ammo baribir bunga yo‘l qo‘yishadi;

aktiv – ular o‘zi anglagan holda ishlarni ortga suradi, chunki vaqt juda kam qolganida ishlarni samarali yakunlay oladi.

O‘z o‘rnida passiv prokrastinatorlar ham ikkiga – ikkilanuvchilarga, ya’ni xato qilishdan qo‘rqadiganlarga va qochuvchilarga, ya’ni boshqalardan o‘zining ishi haqidagi fikrlarini eshitishdan qo‘rqadigan insonlarga bo‘linadi.

Prokrastinatsiya dangasalik bilan bog‘liqmi?

New York Times maqolasida ta’kidlanishicha, prokrastinatsiyaning dangasalikka aloqasi yo‘q. Chunki siz biror bir muhim vazifani chetga surgan holda boshqa ish bilan, aytaylik, oshxona jihozlarini taxlash bilan shug‘ullansangiz, sizni dangasa deb atash noto‘g‘ri bo‘ladi. Axir oshxonani tozalash yoki shu kabi boshqa yumushlar: do‘stlar bilan vaqtichog‘lik qilish yoki film tomosha qilish degani emas. Ammo prokrastinatsiya doimo o‘zimizni yomon his qilishimizga, ya’ni o‘zimiz haqimizdagi fikrimizning salbiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Prokrastinatsiyaning yuzaga kelish sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

insonni o‘ziga past baho berishi sababli muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishi – eng ko‘p uchraydigan omil;

perfeksionizm – ma’lum bir ishni qanday qilib mukammal darajada (ideal) bajarishni bilmaganligi uchun, buni qilishga ham urinmaslik;

o‘z-o‘zini cheklash – muvaffaqiyatga erishish va boshqalardan ajralib turishni ongsiz ravishda istamaslik;

bo‘ysunmaslik – inson ongsiz ravishda bu ishning to‘g‘ri ekanligiga qo‘shilmaydi va buni bajargisi kelmaydi;

charchash – organizmining holsizlanib qolishi, hissiy toliqish alomati.

Doktor Pichil va doktor Siruaning 2013-yildagi tadqiqotlariga ko‘ra, prokrastinatsiyani «kayfiyatdagi qisqa muddatli o‘zgarishning rejalashtirilgan uzoq muddatli harakatlardan ustun kelishi» deya baholash mumkin.

Prokrastinatsiya vazifaning o‘zidagi – misol uchun, iflos bo‘lgan hammomni tozalash, boshlig‘ingiz uchun uzundan uzun jadvallar tuzish kabi yumushlarning yoqimli bo‘lmagan jihati bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Bu shuningdek, vazifa bilan bog‘liq bo‘lgan ancha chuqur hissiyotlar bilan, masalan, o‘ziga ishonmaslik yoki xavotir bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Aytaylik, bo‘sh turgan hujjatga qarab, inson o‘zini uni to‘ldirish uchun yetarli darajada aqlli deb bilmasligi mumkin.

“Agar men buni to‘ldirsam ham, odamlar nima deb o‘ylaydi?”, “buni bajarish juda qiyin”, “agar men xato qilib qo‘ysam-chi?..”

Aynan mana shu fikrlar bizni hujjatni bir chetga surib, boshqa ishlar bilan shug‘ullanishimizga sabab bo‘ladi. Chunki bu vaqtda siz uchun oddiyroq bo‘lgan boshqa bir yumush bilan band bo‘lish yaxshiroq fikrdek ko‘rinadi.

Biz prokrastinatsiyaga yo‘l qo‘yayotganda his qiladigan va birdan paydo bo‘ladigan yengillik prokrastinatsiyani takrorlanuvchi siklga aylantirib qo‘yadi. Ayni damda ishni ortga surish sizga yengillik olib keladi, go‘yoki siz “prokrastinatsiya uchun rag‘batlantirilyapsiz”. Bixeviorizm (xulq-atvorni tizimli tarzda o‘rganuvchi soha) asoslariga ko‘ra, agar biz biror narsa uchun rag‘batlantirilsak, bu biz uchun odat tusiga aylana boshlaydi. Shuning uchun ham prokrastinatsiya bir martalik hodisa emas, balki surunkali bo‘lib qolish moyilligiga ega.

Vahti kelib surunkali prokrastinatsiya nafaqat samaradorlikning pasayishiga, balki bizning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘imizga jiddiy putur yetkazishi, jumladan, surunkali stress, doimiy tarzda hayotdan nolish, depressiya, sarosima, gipertoniya va yurak-qon tomir kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Biz birinchi navbatda prokrastinatsiyaning samaradorlik bilan emas, balki hissiyotlar bilan bog‘liq ekanligini tushunishimiz kerak, o‘z hissiyotlarimizni yangicha uslubda boshqara olishni o‘rganishimiz kerak.

**Oddiy qadamlar.** Ko‘p hollarda o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimiz bizga haddan ortiq murakkab bo‘lib ko‘rinadi. Shuning uchun ushbu vazifani yakunlash uchun mayda-mayda qadamlar yordamida harakat qilish sizga prokrastinatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik uchun yordam berishi mumkin. Psixolog Kristina Misyura buning uchun “Pomodorro” texnikasini tavsiya qiladi. Unga ko‘ra: Har bir vazifani kichkinaroq vazifachalarga ajrating: har bir kichik vazifaga 25 daqiqadan va ulardan so‘ng 5 daqiqa dam olish uchun sarflang. Shu yo‘l bilan siz diqqatingizni bir xil darajada saqlay olishingiz hamda miyangizni ko‘p soatlik, tanaffuslarsiz ish yukidan xalos qilishingiz mumkin. “Bugun kechqurun diplom ishimni yakunlayman” deya maqsad qilmang, yaxshisi “bugun diplom ishimning ikki betini yakunlayman” deya reja qiling. Bunday ko‘rinishdagi maqsad sizni cho‘chitib yubormaydi va uni amalga oshira olish ehtimolingiz sezilarli darajada katta.

**15 daqiqa qoidasi.** Prokrastinatsiyani yengish uchun, shuningdek, 15 daqiqa qoidasi ham asqatishi mumkin. Bunda har kuni kamida 15 daqiqani o‘zingiz uchun qiziq bo‘lmagan, ammo muhim vazifani bajarishga sarflashni odat qilib oling. Kundan kunga maqsadingiz sizga yaqinroq tuyula boshlaydi. Kuniga 15 daqiqani qiyin vazifaga bag‘ishlash orqali umuman hech narsa qilmagandan ko‘ra ko‘p narsaga erishish mumkin.

**Jarayondan lazzatlanish.** Prokrastinatsiya qilish shunchalik yoqimli, ishni bajarishga sho‘ng‘ish esa ancha mushkul ish. Shuning uchun eng qiyin vazifada ham ijobiy tomonlarni ko‘ra olish juda muhim. Masalan, uyni tozalash jarayonini sport bilan, ovqat tayyorlashni ijod bilan mujassamlashtirish mumkin. Yoqimli atmosfera yaratish uchun sevimli musiqangizni yoqib qo‘yishingiz mumkin. Ishga yaxshi kayfiyat bilan yondashish zarur, shunda ishni yakunlashingiz oson kechadi.

1. Matn asosida berilgan quyidagi hukmlar oxiriga matn mazmunidan kelib chiqib to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri so‘zlaridan mosini yozing. (Umumiy 5 ball)

1. Prokrastinatsiya sindromining kelib chiqish sabablarini aniqlaydigan psixologlarning maxsus dasturi ishlab chiqilgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Prokrastinatsiyaning inson uchun salbiy va ijobiy tomonlari mavjud.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Prokrastinatsiya insonning kundalik turmush tarzi, kun tartibini to'g'ri rejalashtira olmaslik natijasida vujudga keladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Prokrastinatsiya inson ruhiyati va salomatligida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Matn asosida berilgan quyidagi hukmlar oxiriga matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri so'zlaridan mosini yozing. (Umumiy 5 ball)

1. Aksariyat insonlarning prokrastinatsiya sindromidan aziyat chekishiga o'ziga past baho berish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish sabab bo'ladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Prokrastinatsiya inson o'zini doimiy ravishda yomon his qilishiga, o'z qarorlariga nisbatan ishonchsizlik shakllanishiga sabab bo'ladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Prokrastinatsiya bizning ruhiyatimizga yengillik beribgina qolmasdan, biz vaqtimiz juda kam qolganida ishlarni samarali yakunlay olishimiz uchun energiya to'plashimizni ta'minlab beradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Prokrastinatsiyani yengish mumkin, buning uchun o'z hissiyotlarimizni yangicha uslubda boshqara olishni o'rganishimiz lozim.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Matn asosida berilgan quyidagi hukmlar oxiriga matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri so'zlaridan mosini yozing. (Umumiy 5 ball)

1. Biz prokrastinatsiya qilamiz, chunki bu vaqtda biz uchun oddiyroq bo'lgan boshqa bir yumush bilan band bo'lish yaxshiroq fikrdek ko'rinadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Biz prokrastinatsiya qilamiz, negaki ko'p hollarda o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz bizga haddan ortiq murakkab bo'lib tuyiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Biz prokrastinatsiya qilamiz, chunki jamiyatdan ajralib qolishdan qo'rqamiz.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Biz prokrastinatsiya qilamiz, sababi inson ongsiz ravishda bu ishning to'g'ri ekanligiga qo'shilmasligi va buni bajargisi kelmasligi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Xulosa sifatida shunday parafraza yozingki, natijada u butun matnning ifodasi bo'la olsun, ya'ni matn mazmunini akslantirsin. (5 ball). Izoh: Parafraza mantiqliligidan kelib chiqib ball qo'yiladi.

Javob: \_\_\_\_\_

5. Matnda ajratib ko'rsatilgan jumlar nimani ifodalamoqda? Javobingizni yozing. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

**Quyidagi matnni o'qing va savollarga javob bering. (5 ta savol)**

**2-matn. Matnni o'qing va 6-10 savollarga javob bering**

MENING VATANIM

Yuz yil umr ko'rsam, yuz yil she'r yozsam,

Yuz yil ta'rifingni aytсам muttasil.

Baribir, sevgili yor rasmini

Chizmoqqa munosib rang topolmayin.

Chamanda **tentirab** yurgan rassomday,

Sening tasviringga so'z axtararman,

So'zlar sarasidan shu bugungiday.

Yuz yilgi she'rimni yig'salar hamki,

Bo'lmaydi dildagi sevgimday **asil**,

Ey, mening Vatanim, mening Vatanim!

Dunyoda ne yaxshi xislatlar bor,

Hammasi, hammasi senda mujassam.

**Aziz tuprog'ingni** ko'zimga surtib,

Bahorda barglarga yuzimni surtib,

Insonlik hurmati ichaman qasam:

Senga qurbon bo'lsa, mayli, jon-tanim.

Sening shoirangman, shu ulug' elning

Baxtini ko'zlovchi bir jigarbanti.

Adolat, erklikni kuylaganim-chun

Quvg'indi bo'lmayman keng quchog'ingdan –

Biz doim birgamiz, mening Vatanim.

To tirik ekanman, mehring, g'ururing

Mehnatda, rohatda jonim payvandi,

Sen mening sevganim, sen maqtaganim! (Saida Zunnunova)

6-savol. She'rda ajratib ko'rsatilgan **tentirab** so'zi shoirning qanday badiiy maqsadini ifodalashga xizmat qilgan? (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

7-savol. Savolni o'qing faqat bitta javobni belgilang

She'rdagi ajratib ko'rsatilgan "asil" so'zi sinonimini yozing. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

Diqqat. Yuqoridagi she'r matniga tayangan holda 8-10-topshiriqlarni bajaring. Bunda hukmlarni she'r parchalari bilan moslashtirish nazarda tutiladi. (Umumiy 15 ball)

Savol matni	Moslashtirish uchun parcha	Javob
-------------	----------------------------	-------

<p>8-savol. Bu misrada shoira ko'klam yaproqlarini yuziga surtib insoniylik haqida qasam ichadi.</p> <p>9-savol. Bu misrada haqiqiy shoira vatanga bo'lgan muhabbati o'rin olgan.</p> <p>10-savol. Bu misrada hech bir insonning Vatan oldidagi qarzini yaxshi she'r bilan uza olmasligi aytiladi.</p>	<p>A. Adolat, erklikni kuylaganim-chun Quvg'indi bo'lmayman keng quchog'ingdan.</p> <p>B. Bahorda barglarga yuzimni surtib, Insonlik hurmati ichaman qasam:</p> <p>C. Yuz yilgi she'rimni yig'salar hamki, Bo'lmaydi dildagi sevgimday asil,</p> <p>D. To tirik ekanman, mehring, g'ururing Mehnatda, rohatda jonim payvandi,</p> <p>E. Mehnatda, rohatda jonim payvandi, Sen mening sevganim, sen maqtaganim!</p>	<p>(Har bir savol 5 balldan)</p> <p>8-savol javobi: _____</p> <p>9-savol javobi: _____</p> <p>10-savol javobi: _____</p>
--	--	--

11. Berilgan har bir gap oxiriga "sabab+oqibat" tarzida jumla kiriting va ushbu jumlangiz berilgan gapning mazmuniga mos tushsin. (Umumiy 5 ball)

1) O'quvchilar vazifalarni vaqtida bajardi, shuning uchun o'qishga kirdi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2) Bolalar yaxshi o'qiyman deb, markazimizga tashrif buyurishadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3) O'qimayotgan bolalarga qattiq gapirish kerak, chunki ayrimlar nima qilayotganligini bilmaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4) Yovlar yakson bo'lsin deb, Yigitlar jang bosh boshladi, Dushman qocha boshladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

12. Berilgan so'zlarni o'qing hamda imloviy xato so'zlarni to'g'rilab, barcha 10 ta so'zni ko'chirib yozing. Izoh: Bunda so'z imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan bo'lishi ham mumkin.

So'zlar: Ta'nali, ma'dadkor, ma'rifiy, obidasta, naridan-beri, hayyo-hay, foto-apparat, azbaroyi, Ochil dasturxon, Qorbobo.

(Umumiy 5 ball; har bir to'g'ri yozilgan so'z uchun 0,5 balldan)

Javob:

---



---



---

13. Har bir gap yakuniga "termoq" so'zining o'z yoki ko'chma ma'noda kelganligini "o'z ma'no" yoki "ko'chma ma'no" so'zlarini yozish bilan ifodalang.

(Umumiy 5 ball)

1. Men yoshlikdan otamga qarashdim, poda boqdim, mashoq terdim. Javob:

\_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Futbol komandasiga kuchli o'yinchilar terib olindi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Nigor oyim oshxonada mantilarni qasqonga terib, qozonga uyar, Ra'no bo'lsa, ayvonda kichkina ukalari orasida o'tirar edi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. La'lixon gaplashishga telefon oldiga bordi, trubkani qo'liga olib, kerakli nomerlarni tera boshladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

14. Berilgan har ikki so'zning yakuniga uchinchisini qo'shing, natijada sinonimik qator hosil bo'lishiga erishing.

(Umumiy 5 ball)

1. Mashmasha, mojaro \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Taalluqli, daxldor \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Orom, osoyish \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Ko'rkam, latofatli \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

15. Berilgan gaplarda yo'l qo'yilgan qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolikni ajratib ko'rsating, bunday xatolik bo'lmasa, "xatolik yo'q" deb yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Yo'q, akasi, men bugun ishga chiqa olmaydiganga o'xshayman.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Zavod iqtisodining ko'tarish choralari izlab topish eng dolzarb masala bo'lib turibdi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Qachon uning paranjisini ko'rsa, qachon ovozini to'satdan eshitsa, yigit qaltiraydi, rangi oqaradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. U oxirgi avtobusga qandoq ilinganini, qishloqqa qandoq yetib kelganini o'zi ham bilmaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

16. Berilgan gaplarda "bosmoq" so'zining lug'aviy ma'nosini izohlab yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Haydar ota qarasa, shu yalanglikka yantoq bosib qo'yishibdi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Bu yerda o'tgan mojaroni Humrixonga aytib bering, hikoya qilib yozsin, albatta, bosib chiqaramiz.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Suyuqliklar har tomonga baravar kuch bilan bosadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Xalcha xola bo'lsa, bir chekkada gung bo'lib, ro'molining uchini og'ziga bosib turibdi, bir akamning aftiga, bir oyoqlariga qaraydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

17. Berilgan gaplarda tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni tiklang va yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Ular buni varaq \_\_\_ b, kerakli gazlamalarning parcha-parcha nusxalari \_\_\_ ko'rib tanladilar.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)



2. Salimxon \_\_\_\_\_ xayoli shu lahza maktab \_\_\_\_\_ oshnasi Po‘latxon Sodiqov \_\_\_\_\_ ketdi.  
Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Shifo \_\_\_\_\_ lar qadimgi davrlardayoq zaharli modda \_\_\_\_\_ ning inson sihat-salomatligi uchun naf \_\_\_\_\_ borligini e’tirof etganlar.  
Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. U yerda Elmurod \_\_\_\_\_ ham bir emas, ko‘pgina uzoq qarindosh-urug‘ \_\_\_\_\_ i bor \_\_\_\_\_.  
Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

18. Quyida 3 ta parcha keltirilgan. Ushbu parchalarning har uchallasida ham ishtirok etgan fe‘l shakllarini aniqlang hamda yozing.

*(Umumiy 5 ball; agar javobda 1 ta kamchilik aniqlansa ham 0 ball)*

I. Dilimdagi tilimda,  
Tilimdagi dilimda,  
Men omadni kutmayman,  
Omad turar yo‘limda.

II. Ko‘zlari xumormisiz,  
To‘rt fasli bahormisiz,  
Oshiqlarim ko‘p meni,  
Ayting-chi, xushyormisiz.

III. Sevildim-ey, sevildim,  
Qalbingizda sezildim,  
Sog‘inchdan bedormisiz,  
Shuni o‘ylab ezildim.

Javob:

---

---

---

---

19. Berilgan gapda ishtirok etgan ko‘makchi qanday mazmuniy munosabat ifodalaganini yozing. Qo‘ng‘iroq chalinib ulgurmasdanoq o‘qituvchi sinfxona sari yo‘nalganligi ayon.

*(5 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_

20. Berilgan gap haqida keltirilgan hukmlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini “ha”, “yo‘q” tarzida ifoda qilib yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

Men universitetni tamomlagunimcha erga tegmayman, deb qattiq turib oldim.

1. Ravish holi ot kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri tobelangan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Payt holi fe‘l kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri tobelangan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Maqsad holi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. To'ldiruvchi aniqlovchiga kelishik yordamida tobelangan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

Tekshiruvchi: \_\_\_\_\_

## 3-Variant

### I. O‘QIB TUSHUNISH:

#### 1-matn 1-5-savollar

Yer — Quyosh sistemasidagi Quyoshdan uzoqligi jihatdan uchinchi (Merkuriy, Venera sayyoralaridan keyin) sayyora. U o‘z o‘qi atrofida va aylanaga juda yaqin bo‘lgan elliptik orbita bo‘yicha Quyosh atrofida aylanib turadi. Hajmi va massasi jihatidan Yer katta sayyoralar ichida (Yupiter, Saturn, Uran, Neptundan keyin) beshinchi o‘rinda. (1) *Yerda hayot borligi bilan u Quyosh sistemasidagi boshqa sayyoraiardan farq qiladi.* Biroq, hayot materiya taraqqiyotining tabiiy bosqichi bo‘lganligi sababli Yerni koinotning hayot mavjud bo‘lgan yagona kosmik jismi, hayotning Yerdagi shakllarini esa mavjudotning yagona shakllari deb bo‘lmaydi. Hozirgi zamon kosmogoniya nazariyalariga ko‘ra, Yer Quyosh atrofidagi fazoda gaz-chang holatda bo‘lgan kimyoviy elementlarning gravitatsion kondensatlanishi (bir-biriga qo‘shilishi) yo‘li bilan 4,7 milliard-yil muqaddam paydo bo‘lgan. Yer tarkib topib borayotgan vaqtda radioaktiv elementlarning parchalanishi natijasida ajralib chiqadigan issiqlik hisobiga Yerning ichki qismi asta-sekin qizib, (2) *Yer moddasining differensiyalanganiga olib kelgan,* oqibatda Yerning konsentrik joylashgan turli qatlamlari - kimyoviy tarkibi, agregat holati va fizik xossalari jihatidan bir-biridan farq qiladigan geosferalari hosil bo‘lgan. Yer ichki qismining tuzilishi seysmik to‘lqinlarning yer sirti va butun hajmi bo‘yicha tarqalishini tadqiq etish asosida aniqlangan. Bu to‘lqinlar bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqinlar bo‘lib, ularning Yer ichki qismini tashkil etgan qattiq, suyuq qatlamlarida tarqalishi turlicha ko‘rinish kasb etadi. Bu zamonaviy metodlar asosida Yer ichki qatlamlarini o‘rganish quyidagi natijalarni berdi. (3) *Yerpo‘sti deb ataluvchi qatlam o‘rtacha 30 km qalinlikka ega bo‘lib, uning ostidagi Yer mantiyasi 2900 km chuqurlikkacha boradi.* Undan pastda - 5500 km li chuqurlikkacha suyuq tashqi yadro joylashgan bo‘lib, markazda diametri 1500 km chamasidagi qattiq subyadro yotadi. Yerdan tashqarida tashqi geosferalar - suv sferasi (gidrosfera) va havo sferasi (atmosfera) joylashgan.

Yer yuzasining katta qismini 70,8% Dunyo okeanlari egallaydi, quruqlik 29,2 % ni tashkil etadi (quruqlik olti katta materik va ko‘pdan ko‘p orollardan iborat). Yevrosiyo materigi ikki qit‘aga: Yevropa va Osiyoga bo‘linadi, Shimoliy va Janubiy Amerika materiklari esa bir qit‘a hisoblanadi, ba‘zan Tinch okean orollari Okeaniya deb ataladi va odatda uning maydoni Avstraliya bilan qo‘shib hisoblanadi. (4) *Materiklar Dunyo okeanini Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeanlariga ajratib yuborgan,* ba‘zi tadqiqotchilar Atlantika, Tinch va Hind okeanlarining Antarktida yonidagi qismlarini Janubiy okean deb alohida ajratadilar.

1. Matn mazmuniga mos bo‘lgan va grammatik hamda mazmuniy jihatdan **to‘g‘ri shakllantirilgan gap yozing.** (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

2. Yuqoridagi matnda keltirilgan qaysi gap ushbu matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

3. Quyida bir necha hukmlar keltirilgan. Ushbu hukmlarni o‘qib, ularda keltirilgan ma‘lumotni **matn mazmunida aks etgan yoki etmaganligini mos ravishda ha yoki yo‘q javoblaridan birini yozish orqali ifodalang.** (Umumiy 5 ball)

1. *Yerning geosferalari bir-biridan fizik xossasi, kimyoviy tarkibi va agregat holati jihatdan farqlanadi.*

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. *Yerning ichki qatlamidagi ko‘ndalang to‘lqinlar seysmik to‘lqinlar deyiladi.*

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. *Yer mantiyasi 30 km qalinlikka ega hisoblanadi.*

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Subyadroning diametri 5500 kimdan oshadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Matnni o'qing hamda quyida keltirilgan ushbu matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni javoblar qatoriga ko'chirib yozing, ya'ni to'g'ri noto'g'ri tarzida.

(Umumiy 5 ball)

1. Materiklar ta'sirida suv Tinch, Shimoliy Muz, Atlantika Hind, va Janubiy Okeanlarga ajralgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Shimoliy Muz, Tinch va Hind okeanlarining Antarktidaga tutash qismi Janubiy okeandir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Yer yuzining to'rtidan bir qismini materik va orollar tashkil etadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Yer hajm va massa jihatdan Uran, Neptun, Saturn, Yupiterdan keyingi o'rinda turadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

5. Quyida ushbu matn mazmuniga mos hukmlar keltirilgan. Ushbu hukmlar ostidagi javob qatoriga mos tarzda to'g'ri yoki noto'g'ri javoblaridan birini yozing. (Umumiy 5 ball)

1. Yerning tashqi geosferasi suv va havo geosferalariga bo'linadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Yer Quyoshga yaqinligi jihatdan beshinchi sayyora hisoblanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Hayot materiya taraqqiyotining yagona bosqichidir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Shimoliy va Janubiy Amerika bitta materik.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

## 2-matn «O'g'irlangan» pul mojarosi (6-10-savollar)

Muslimov boshliqning xonasiga kirib kelganida boshliq allaqanday qog'ozlarga g'arq bo'lib o'tirardi.

— Chaqirtirgan ekansiz, Ahmad Alievich, — dedi tavoze bilan Muslimov va ruxsat so'ramay stulga o'tirdi. — Masala muhimmi yoki shunchaki...

— Muhimmas, dolzarb, — dedi Ahmad Alievich qog'ozdan bosh ko'tarmay.

— Bizga mukofot ajratilibdi, yuqoridan!

Choraklikda davomadimiz yaxshi bo'lgan ekan. Sizningcha, kimlarga bersak to'g'ri bo'ladi?

Muslimov g'imirlab qoldi.

— O'ziyam, bu choraklikda xodimlarimiz juda faol ishlashdi. Hammasi mukofotga loyiq.

— Gapni umumiy qilmang, Muslimov, — dedi Ahmad Alievich stolni tiqirlatib.

— Masalaga konkret yondashing!

Mukofot hammaga yetmaydi. Sizningcha, kimlarga bersak bo'ladi, shundan gapiring!

— Ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i Hakimovga, muhandis To'xtaevga, hisobchi Faya opaga, iqtisodchi Xoltoevaga...

— O‘tlamang! Yon bosish bo‘lmasin! Bularingizning bari progulchi! Birovi kech keladi, birovi erta ketadi. Hakimovingiz bo‘lsa, bilmadim nima bilan shug‘ullanadi? Kecha tushlikdan keyin ishxonada hech kimni ko‘rmadim.

— Nimaga endi, hamma shu yerda edi...

— Qani bo‘lmasa chaqiring-chi, o‘sha hammani... To‘xtang, Go‘zalxon chaqiradi. Go‘zalxon besh minutga odamlarni bu yerga chaqiring!..

Jamoa birin-ketin kirib kelishdi. Hamma kelib bo‘lgach, Ahmad Alievich yuziga tundlik alomatini zohir etib gap boshladi.

— Sizlarga bu gapni aytishim noqulay, — dedi ko‘zini derazadan uzmay.

— Kecha, aniqrog‘i, tushlikdan so‘ng kostyumimni yechib, ana shu stulning suyanchig‘iga ilib, o‘zim bir ish bilan tashqariga chiqib ketgandim. Cho‘ntagida bir, ikki so‘m pul bor edi. Qaytib kirsam, kostyum joyida, lekin pul yo‘q. Shuning uchun sizlarni chaqirdimki, mabodo...

Yo‘q-yo‘q men sizlardan gumon qilayotganim yo‘q, mabodo...

Xona sukunatga cho‘mdi. Ko‘zlar bir-biriga shubha bilan boqdi. Pichir-pichir boshlandi. Ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i Hakimov o‘ziga tikilib turgan muhandis To‘xtaevning ko‘k ko‘zlariga qarab, beixtiyor:

— Rafiqjon siz menga unaqa qaramang, — dedi bezovtalanib.

— Birovning cho‘ntagiga kunim qolmagan haligacha!

O‘g‘irlik ustida qo‘lga tushgan odamdek, To‘xtaev cho‘chib tushdi.

— Ey, sizga qarab ham bo‘lmaydimi? Boring u yoqqa-ey!

Hakimov asabiylashdi.

— Bir qarayapsizki, odamni teshib yuboray deysiz! Xuddi pulni men o‘g‘irlaganman-u siz quruq qolganday! Axborotingiz uchun men kecha tushlikdan keyin ketganman. Bojam yubileyini qilayotgan edi, o‘shangga ketganman.

— Men sizni o‘g‘ri deyaotganim yo‘q-ku Chinpo‘lat aka! Kecha men ham tushlikdan so‘ng bu yerda yo‘q edim.

Xotanim yangi bo‘shanganini hamma biladi. Kecha shuni olib chiqdim. Ehtimol, Go‘zalxon bilar, qabulxonada paypoq to‘qib o‘tirgan edilar. Begona odam darrov bilinadi-ku!

— Go‘zalxon, kecha mabodo birorta begona kishi...

Poygakda o‘tirgan kotiba qiz Go‘zalxon hayajonlanganicha o‘rnidan turdi.

— Men-men... Yo‘q-yo‘q... Begona kishi kelgani yo‘q, — dedi oppoq qo‘lchalarini bir-biriga ishqalab.

— Men kecha tushlikdan keyin yarmarkaga tushgandim. Eshmat akamla keluvdila-da, shunga... U kishi begona emas-ku. Bu yoqqa chiqqanlari ham yo‘q, pastdan telepon qildila, telpon bilan o‘g‘irlik qilib bo‘lmaydi-ku?! Eshmat akam bilan yurganimizni mashinistkamiz Zuhra opa, kassirimiz Galya opa va Mo‘tti opalar ko‘rishdi. Galya opa, o‘zingiz bir nima deng! Bula mani o‘g‘ri qilyapti! Man tushib ketayotganda Sulton aka bilan Karim aka xonasida gaplashib o‘tirishgan edi. Karim aka menga «ha, svidaniyagami?» deb ham qo‘ydila...

— Go‘zalxon, gumon iymondan ayirar, degan gap bor, qizim, - dedi Karim aka ko‘zoynagini asabiy tarzda to‘g‘irlab olarkan.

— Sen, qizim, bizlarni tushlikdan oldin ko‘rgansan. Kecha Sulton akang shaxmatdan yutqazgani uchun menga pivoga tushgan. Shunga ikkimiz sal vaqtiliroq quyonni rasmini chizganmiz. Eson tog‘aga «yuring» dedik, u kishi «ishim bor» deb unamadi... Eson tog‘a, o‘ziz ayting bularga, kecha shunaqa gap bo‘luvdimi?

Eson tog‘a beparvo odam. Shuning bilan birga halol. U kishidan gumon qilmasa ham bo‘ladi.

— To‘g‘ri, sizlarni ko‘ruvdim, — dedi Eson tog‘a yer chizib.

— Sizlar ketgandan keyin eshiklarni tortib-tortib ko‘rdim.  
Hamma eshiklar berk ekan. Shundan keyin men ham o‘zimni ishimga ketdim-da.  
Eson tog‘aning gapi masalaga nuqta qo‘ygandek bo‘ldi. Lekin Ahmad Alievich yana zug‘umga oldi.  
— Demak, kecha tushlikdan so‘ng bu yerda hech kim bo‘lmagan, mendan boshqa! Mening xonamga ham hech kim kirmagan, shundaymi?  
— Shunday, shunday, — dedi Eson tog‘a beparvolik bilan.  
— Eson aka, — dedi Ahmad Alievich qo‘lini bigiz qilib, — siz shunday deysiz-ku, boshqa sayyoradan kelib mani cho‘ntagimni shilib ketmagandir! Muslimov, daromad yaxshi deb chirangani-chirangan! Yana bularga mukofot ham beraman deydi!  
— Ahmad Alievich yana uzoq gapirdi. Lekin o‘g‘ri topilmadi. U Muslimovga «siz qoling» deb boshqalarga ruxsat berdi.  
Muslimov o‘sal bo‘lgandek boshini xam qilganicha o‘tiraverdi. Ahmad Alievich o‘sha tundlik bilan:  
— Siz ana shunday dangasalarga mukofot beraman deysiz! — dedi.  
— Men bunaqa bo‘lganini qanday bilay, Ahmad Alievich, — dedi gunohkorlarcha g‘uldirab. — Kecha o‘zim ham tushlikdan keyin yo‘q edim.  
— Ana, hatto o‘zingiz ham mukofotga loyiq emassiz! Mayli ketavering!..  
Muslimov o‘rnidan og‘ir qo‘zg‘aldi va eshik tomon yo‘nalarkan:  
— Yaxshi ish bo‘lmabdi, Ahmad Alievich — dedi mayinlik bilan. — O‘g‘irlangan pulingiz ko‘pmidi?  
— Ko‘p-kamligini mukofotni olgandan keyin bilamizda, Muslimov, — dedi Ahmad Alievich, mug‘ombirona jilmayib.

6. Hikoyada direktor nima sababdan hammaning nomzodini rad etaverganining sababini yozing?  
(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

7. «Konkret yondashing » iborasi hikoyada qanday ma‘noni ifodalash uchun xizmat qilganini yozing.  
(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

8. “Sal vaqtliroq quyonning rasmini chizganmiz” iborasi qaysi ma‘noda qo‘llanganini yozing.  
(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

9. Ko‘p-kamligini mukofotni olgandan keyin bilamiz-da, Muslimov, — dedi Ahmad Alievich, mug‘ombirona jilmayib. Shunday qilib mukofot kimga nasib qiladigan bo‘lganini yozib bering.  
(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

10. Men sizni o‘g‘ri deyayotganim yo‘q-ku, Chinpo‘lat aka! Kecha men ham tushlikdan so‘ng bu yerda yo‘q edim. Xotinim yangi bo‘shanganini hamma biladi. Kecha shuni olib chiqdim.

Ehtimol, Go‘zalxon bilar, qabulxonada paypoq to‘qib o‘tirgan edilar. Begona odam darrov bilinadi-ku! Keltirilgan fikrlar kimga tegishli ekanini yozma ifodalang.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

11. Qizining baxti ochilmayotganidan kuygan ona boshini tizzalariga qo‘yib, hasrat bilan yum-yum yig‘ladi.

Yuqoridagi gapdan kelib chiqib quyidagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishi tahlil qiling. To‘g‘ri bog‘lanish yoki noto‘g‘ri bog‘lanish jumlasini kiritib yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Qizining boshini, hasrat bilan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Kuygan tizzalariga, baxti yig‘ladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Qo‘yib, hasrat bilan, yum-yum yig‘ladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Baxti ochilmayotganidan yig‘ladi, boshini qo‘yib.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

12. Berilgan gaplarning nima sababdan qavs ishlatilganligining sababini har bir gapdan keyin keltirilgan ajratilgan joyga yozma tarzda bayon qiling.

(Umumiy 5 ball)

1. *O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSh, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o‘rinda turadi), eksport bo‘yicha AQShdan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallaydi.*

Javob: \_\_\_\_\_ (1 ball)

2. *Xon (yolg‘iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur.*

Javob: \_\_\_\_\_ (1 ball)

3. *Ilm insonlarning hayoti, madori, rahbari, najotidir. (Abdulla Avloniy)*

Javob: \_\_\_\_\_ (1 ball)

4. *Ro‘za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayitining (Iyd al-Adha) birinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan.*

Javob: \_\_\_\_\_ (1 ball)

5. *Shuhrat (G‘ulom Alimov Aminovich) atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biridir.*

Javob: \_\_\_\_\_ (1 ball)



13. Quyida berilgan soʻzlarni imloviy jihatdan togrilab javoblar qatoriga koʻchirib yozing.  
Diqqat! Ushbu soʻzlar orasida imloviy toʻgʻri yozilganlari ham boʻlishi mumkin.

*(Umumiy 5 ball; har bir toʻgʻri yozilgan soʻz uchun 0,5 ball)*

Soʻzlar: Mutaasib, duogoʻy, dastavval, loqayd, deʻvona, gripp, birdan-bir, mexrob, dardi bedavo, naqorat.

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

14. Quyida berilgan gaplarda keltirilgan “shirin” soʻzining oʻz yoki koʻchma maʼnoda kelganligiga tayanib ushbu gaplarning har biri yakuniga oʻz maʼno yoki koʻchma maʼno jumlasini kiriting.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Shirin mevalarga oʻrgangan ogʻizlariga bu yerning nordon neʼmatlari yoqmadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Dunyoda bitsin urush,

Yer yuzi koʻrmasin dogʻ,

Gullasin shirin turmush,

Tinchlik boʻlsin hamma yoq.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. U shovqin-suron ichida shunday shirin uxlardiki, bunday uyqu halol ishlab charchagan vaqtdagina boʻlishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Muharram shirin tabassum bilan kuldi-da, bejirim labining ikki burchagini nozik toʻr tutilgan dastroʻmolchasi bilan artib qoʻydi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

15. Quyida berilgan soʻzlarni shunday guruhlariga ajratingki, natijada 4 ta sinonimik qator hosil boʻlsin.

Chiroyli, zavq, ilgarigi, xursandchilik, burungi, kayfiyat, avvalgi, qadimiy, xushroʻy, zebo, oldingi.

*(Umumiy 5 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

16. Quyida 4 ta gap berilmoqda. Berilgan gaplar yakuniga ushbu gaplarda qoʻshimcha qoʻllash bilan bogʻliq xatolik bor yoki yoʻqligini “mavjud” yoki “mavjud emas” tarzida yozing.

1. Shahar bankida yongʻin boshlanganligi haqidagi qalbaki maʼlumotni oʻt oʻchirish qismiga Hasanovning oʻzi xabar qilgan edi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Tavba, xo‘p alomat odam-da. Bu qo‘tir dunyoda shunaqa odamoxunlar borligiga hech aqlim yetmaydi. Bor ekan-da!

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Otlarning kishnashi, odamlarning hoy-huylashi manzilning yaqinligini bildirar edi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Asqar mulla dam solar, band qilib, tumor bitib berar edi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

17. Quyida berilgan gapda “qora” so‘zi qaysi ma’noda qo‘llanmoqda?

Oppoq qorda odamlarning qorasi yelib yugurardi.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

18. Quyida keltirilgan 3 ta gapdagi “qora” so‘zi o‘zaro shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qanday so‘z ekanligini yozma ifodalang.

(5 ball)

1. Mergan bo‘lsang, o‘shal og‘ochni qoraga olib otg‘il.

2. Sof nomusiga otilgan qorani butunlay yuvib tashlashga jazm qildi.

3. Nimqorong‘ida ruxsoridagi no‘xatdek qora xolini aniq ko‘rdi.

Javob: \_\_\_\_\_

19. Quyida berilgan gaplarda tushirilgan qo‘shimchalarni tiklang hamda chiziqcha ustiga yozib qo‘ying.

(Umumiy 5 ball)

1. Abdurasul o‘qish\_\_ bilmasa ham, kitoblarni ishtiyok bilan varaqlay boshla\_\_ va ba’zi bir surat\_\_ga tikildi. (1,25 ball)

2. Zulukxon Norqo‘zining turgan yerida surat bo‘l\_\_ qolganini, yigitning qalb\_\_ qo‘rquvga to‘lganini fahm\_\_di. (1,25 ball)

3. Bilim — oltindan qimmat, qilichdan kes\_\_, zambarak\_\_ kuch\_\_. (1,25 ball)

4. Bolalar vaqt\_\_ yot\_\_ uxlash\_\_. (1,25 ball)

20. Quyida 3 ta parcha keltirilmogda. Otga xos qanday shakl ushbu parchalarning har uchallasida ham ishtirok etgan?

(5 ball; agar javobda har qanday kamchilik aniqlansa 0 ball)

I. Yomon holga tushganning shod et dilin,

Unutma, yomon kun kelib qolmasin.

II. Shirin so‘zli shilgay g‘anim po‘stini,

Dag‘al so‘zli dushman qilur do‘stini.

III. Shirin so‘zni o‘rgan mudom Sa’diydan,

Dag‘al so‘zli odam o‘tar g‘ami bilan.

Javob: \_\_\_\_\_

**Baholash**

**Maktab nomi:** \_\_\_\_\_

**Fan nomi:** \_\_\_\_\_

**Sana:** \_\_\_\_\_

**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

Tekshiruvchi: \_\_\_\_\_

---

## 4-Variant

### I. O‘QIB TUSHUNISH:

#### Saturn sayyorasi

##### 1-matn 1-5-savollar

Qadim zamonlardan beri Saturn sayyorasi insonlarni hayratlantirib keladi. Bu sayyora Qadimgi Rim xudolaridan biri bo‘lgan iloh(a)ga atab qo‘yilgan. [1] Saturn sayyorasi Quyosh sayyoralarida ichida hajmi bo‘yicha Yupiterdan keyingi ikkinchi sayyora hisoblanadi. Bu sayyorani birinchi bo‘lib kuzatgan va tadqiq etgan olim Galileo Galiley hisoblanadi. U 1609-yilda ilk bor Saturn sayyorasini kuzatgan. [2] Saturn sayyorasi atmosferasining asosi vodorod va geliy kabi moddalardan tashkil topgan. U Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishiga Saturn yili bilan hisoblanganda 30 yil ketadi (Yer esa 365 kun(1 yil)da aylanib chiqadi). Sayyoraning ekvatorial hajmi Yupiter sayyorasidan kichik, uning massasi ham Yer va Yupiterning massasidan ancha yengilroq hisoblanadi. Saturn asosan vodorod va geliydan tashkil topganligi uchun u boshqa sayyoralarga qaraganda ancha kam zichlikka egadir. Zichlik haqida gap ketganda, ushbu sayyoraning zichligi hatto suvning zichligidan ham kichik hisoblanadi. Olimlar tomonidan o‘tkazilgan Spektral tahlil natijalariga ko‘ra sayyora atmosferasida turli xil molekular aniqlangan. Shuningdek, sayyorada doimiy shamollar, xususan, 500 km/soat tezlikda esadigan dovullarni ham uchratish mumkin, bunga sabab sifatida sayyora juda tez aylanishi ko‘rsatilgan. Olimlarning ko‘p yillik izlanishlariga ko‘ra Saturn sayyorasida hayot mavjud emasligi aniqlangan. Unda xuddi Yerdagi kabi fasllar mavjud. Qiziq tomoni sayyorada bir fasl yetti yil (Yer yili bilan hisoblaganda) davom etadi. Sayyora o‘zini doimo tekislab turish xususiyatiga ega. Olimlar buning sababi sifatida sayyoraning juda tez aylanishini keltirishgan. Saturnni avvalroq kuzatgan olimlarning fikricha, sayyoraning halqalari uning tabiiy yo‘ldoshi sifatida qabul qilingan. Oradan ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng bu dalil o‘zini oqlamadi. [3] Olimlar bu halqalar tabiiy yo‘ldosh emasligini, aksincha, Saturnning tabiiy yo‘ldoshlari boshqa, xususan, Titan ekanini aniqlandi. Agar Saturndagi vaqtni Yerdagi vaqt bilan solishtirilsa, biroq tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin, ya’ni Saturndagi bir yil Yerdagi 30 yilga teng keladi. Olimlar tomonidan kashf etilgan mashhur kashfiyotlardan biri bu – Saturn rangining o‘zgarib turishini aniqlaganliklaridir. Bu jarayon bevosita fasllar almashinuvi bilan bog‘liq. Har faslda Saturn rangi shu faslga mos ravishda o‘zgarib turadi. Saturn shunday sayyoraki, uni teleskop yordamisiz ham kuzatish mumkin. Sayyorada doimiy halqalar mavjud bo‘lib, u chang va muzlardan tashkil topgan. Saturn va Yer sayyoralarida qisman yaqin gravitatsion (tortishish kuchi) belgiga ega. Yerdagi 80 kg li inson Saturn sayyorasida 72 kg ni tashkil etadi. Saturnda sariq va oltin rangdagi chiziqlar ham paydo bo‘lganini olimlar aniqlagan. Bu chiziqlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab doimiy shamollar hisoblanadi. [4] Olimlar yana bir farazni ilgari surishadi: “Saturn avval juda katta sayyora bo‘lgan, lekin gravitatsiya natijasida bu sayyoradan Neptun va Uran ajralib chiqqan”. Lekin bu faraz hanuzgacha isbotlangan emas. Bu sayyora haqida astronomlar bugungi kunda ham izlanishlarni olib borishmoqda. Kelajakda sayyoraning insoniyatga ma’lum bo‘lmagan qirralarini ham ko‘rishimiz va bilishimiz mumkin bo‘ladi.

1. Matn mazmuniga asoslanib 4 ta hukm berilmoqda. Har bir hukm ostiga matn mazmuniga tayanib to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri jumalalaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Saturnning hajm va massa ko‘rsatkichi Yupiter va Yer sayyoralariga nisbatan ko‘p yoki oz bo‘lishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Saturnda bir fasl boshqa faslga almashgunicha Yer Quyosh atrofini 7 marta aylanib chiqadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Neptun va Uran sayyoralarining hosil bo'lishida Saturn muhim ro'l o'ynaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Saturn sayyorasini ilk bor kuzatish XVI asrning boshlaridan boshlangan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? Ushbu gapni ko'chirib yozing. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

3. Quyida 4 ta ma'lumot berilmoqda. Siz ushbu ma'lumotlar bilan tanishgan holatda ular ostiga "aks etgan" yoki "aks etmagan" jumllaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Saturnning zichligi undagi fasllar almashinuviga bog'liq.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Saturn hajm tomondan Yerdan kichik sayyora hisoblanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Saturn Quyosh atrofida Yerga nisbatan kamroq muddatda aylanib chiqadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Saturn va Yerdagi nomutonosit jarayonlardan biri bu – gravitatsiya hisoblanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Quyida 4 ta ma'lumot berilmoqda. Siz ushbu ma'lumotlar bilan tanishgan holatda ular ostiga "to'g'ri shakllantirilgan" yoki "to'g'ri shakllantirilmagan" jumllaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Olimlar tomonidan Saturn atmosferasidan molekullarni topilishi u yerda tirik jon yashashi mumkinligini isbotlaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Saturnning halqalari ma'lum vaqt uning tabiiy yo'ldoshi vazifasini bajarib turgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Saturn sayyorasi Quyoshga nisbatan uzoqda joylashganligi tufayli uni mikroskop yordamisiz ko'rib bo'lmaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Saturnda chang va muz parchalarini ham uchratish mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

5. Matndagi qaysi jarayon(lar) bevosita yoki bilvosita Saturn sayyorasining tez aylanishiga bo'g'liq ekanligini yozing.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

## **O'zbekistondagi qo'riqxonalar**

### **2-matn 6-10 savollar**

Qizil kitob Yer yuzida yildan yil tabiat burchaklariga inson qo'li etmagan yerlar kamayib bormoqda, ya'ni tabiatdagi cho'l, tog' va o'rmonlarning asl qiyofasini ko'rishga imkoniyat qolmayapti. Tabiatning asl muhitini va unda yashayotgan barcha jonzotlarni saqlab qolish uchun davlat tomonidan qo'riqxonalar tashkil qilingan. Qo'riqxonalar nima? Qo'riqxonalar – bu akvatoriya yoki territoriya, xo'jalikdan butunlay ajratilgan yer maydoni bo'lib hisoblanadi. Qo'riqxonalar tabiatning ilmiy laboratoriyalari bo'lib, u yerda tabiat rivojlanish qonuniyatlarining murakkab tekshirishlari va kuzatishlari o'tkaziladi. Qo'riqxonalarda ayrim hayvon zotlari va o'simlik turlari o'rganiladi hamda bu yerda insonning har qanday ta'siri umuman taqiqlanadi.

O'zbekistonda, birinchi qo'riqxonalar – 1929 yilda Turkistonning g'arbiy qismida tashkil qilingan bo'lib, 8000 gektar (ga) maydoniga ega. Keyinchalik yer maydoni 15600 ga kengaytirilgan. U hozirda Zomin nomini olgan. Ikkinchi qo'riqxonalar – 1941- yilda Orol daryosi qirg'oqlarida tashkil etilgan bo'lib, 300000 gektar (ga) maydoniga ega. Uchinchi qo'riqxonalar – 1947- yilda Toshkent viloyatining Ohangaron va Parkent tumanlari atrofida tashkil qilingan bo'lib, maydoni 22000 gektardan 35686 ga kengaytirilgan va hozirda Chotqol nomi bilan ataladi. 1961- yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining qo'riqxonasi tashkil qilindi, hozirda Surxondaryo qo'riqxonasi deyiladi. 1971- yilda respublikada 3 ta qo'riqxonalar: Qoraqalpog'da – Baday qo'riqxonasi, Buxoroda – Qorako'l va Qizilqum qo'riqxonasi tashkil qilingan. 1975- yilda yana 4 ta qo'riqxonalar tashkil etildi. Vardanzi (Buxoroda), Nurota (Nurotada), Qizilqum (Qashqadaryoda), Zarafshon (Samarqandda). 1976- yilda Qashqadaryoda Miroqchi qo'riqxonasi, 1977- yilda Jizzaxda Arnasoy, 1978- yilda Farg'onada Abdusamat, 1986- yilda Surxondaryo qo'riqxonasi tashkil etilgan, yer maydoni 245002 gektarga ega, uning tarkibiga Orol payg'ambar qo'riqxonasi qo'shildi. Yuqorida aytib o'tilgan qo'riqxonalar boshqa respublikamiz hududida yana bir qancha qo'riqxonalar bor. Ulardan tashqari milliy bog'larimiz, tabiiy yodgorliklarimiz ham bor. Har qaysi qo'riqxonada ma'lum bir o'simlik turlari va hayvon zotlari saqlanadi, ularning yashashi, ko'payishi, fiziologiyasi, tabiati o'rganiladi. Qo'riqxonalar, Qizil kitobning asosiy va muhim vazifalari tabiatimizni asrashimizga qaratilgan.

“Qizil kitob – bu hujjat bo'lib, u insonning vijdonidir. Har qaysi millat, dunyo oldida o'zining tabiat boyliklarini asrash mas'uliyatini olgan” (Xalqaro Qizil kitobdan olingan). Qizil kitob – nima? Bu xavf va umid kitobidir. Bu kitobni boshqacha qilib qayg'u-alam kitobi ham deyiladi, chunki bu kitobda yer yuzidagi yo'qolib ketayotgan hayvon zotlari va o'simlik turlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Qizil kitob - harakatga chaqiruvchi kitobidir. Dunyoning ko'pgina davlatlari olimlari tomonidan butun dunyoda yo'qolib ketayotgan va juda kam uchraydigan hayvonlar, o'simliklar dunyosini himoya qilish va ularni saqlab qolish uchun Tabiat va tabiat resurslarini himoya qilish birlashmasining Qizil kitobi (XTHQB) tashkil etildi. Bu kitob chet elda 60-70- yillarda chop etildi. 1-2- tomida sutemizuvchilar, qushlar haqida, 3-4-tomida esa suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar haqida so'z yuritiladi. Qizil kitob tabiatni sevuvchilar, mutaxassislarning diqqatini o'ziga tortib, hamma mintaqada mashhur bo'ldi. Bu kitob xuddi kalendardek bezalgan bo'lib, uning har bir varag'i har xil rangdadir. Har qaysi rangning o'z ma'nosi bo'lib, masalan, qizil rangda yozilgan hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib ketayotgani va ularning himoyaga muhtojligini bildiradi. Yer yuzida hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib ketishining ikki sababi bor bo'lib, birinchi sababi: bu tabiiy sharoitning o'zgarishi natijasida bo'lsa (tabiiy sabab), ikkinchi sababi esa – (antropogen) inson harakatlari natijasidir. Dunyoda umumiy qushlar va hayvonlarning 1/4 qismi tabiiy sabablar natijasida yo'qolgan bo'lsa, 3/4 qismi esa) inson ta'sirida yo'qolgandir. Oldin bu raqamlarni faqat biologiya mutaxassislari bilishsa, endi esa mln.lab odamlarga ham ayon bo'ldi va insonlar oldida savol tug'ildi: Inson, sen nima qilyapsan? To'xta – sen o'z uyingni buzyapsan! Hayvon va o'simlik dunyosini asrashda ko'pgina amaliy ishlar qilinib va ularni hisobga olib har qaysi davlat, viloyat, tuman va mintaqalarda o'z Qizil kitoblari tashkil etilyapti. O'zbekiston Qizil kitobi ham 1984- yilda tashkil topgan. Unga ko'pgina o'simlik turlari va hayvon zotlari kiritilgan. Masalan, o'simliklardan; lolaning barcha turlari, anzur piyozi, boychechak va h.z. Qizil kitob haqida yana bir muhim joyi bo'lib, Qizil kitobning sahifalari hech qachon tugallanmaydi, doimo uning sahifalarini yangi o'simlik turlari va hayvon zotlari to'ldirilib boradi. Qizil kitobning sahifalarini qisqartirish uchun inson madaniyati va xulqini doim oshira borish kerak, bu olimlar oldiga qo'yilgan muhim muammolardan biridir. 1948- yilda BMT qoshidagi Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni boshqaruvchi va konsultatsiya beruvchi organ – Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi tuzildi. Bunga 100 dan ortiq mamlakatlarning 450 davlatlar va jamoat tashkilotlari birlashtirildi. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi ilmiy jamoatchilikka murojaat qilib barcha mamlakatlardagi nodir va yo'qolib borayotgan hayvonlarning holatini har tomonlama o'rganishda yordam berish, ularni muhofaza qilish choralarini topishga chaqirdi. Noyob va kamayib borayotgan hamda yo'qolish xavfi ostida turgan barcha turlarni o'rganuvchi doimiy komissiya tuzildi. Bu komissiya bir necha yillar (1949-1966) mobaynida nodir va kamayib borayotgan hamda yo'qolish xavfi ostida turgan barcha turlar haqida material to'plab, maxsus "Qizil kitob" (The Red Data Book)ni tuzib chiqdilar. Ushbu kitobda noyob o'simlik, qushlar va hayvonlarning hozirgi yashash joylari, soni, biologik xususiyatlari, dunyo hayvonot bog'laridagi miqdori va har xil mamlakatlarda himoya qilish uchun qabul qilingan chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvon turlari 4 ta toifaga bo'lingan: Yo'qolib borayotgan turlar; Kamayib borayotgan turlar; Noyob-nodir turlar; Noaniq turlar. Sobiq ittifoqda 1974- yilda "Qizil kitob" ta'sis etilgan bo'lib, 1978- yilda chop etildi. Unga 63 tur va kenja tur sut emizuvchilar, 63 ta qush, 8 ta amfibiy, 21 ta sudralib yuruvchi mavjudotlar kiritilgan edi. "Qizil kitob" ning O'zbekistonga taalluqli joylari ko'pgina olimlar tomonidan ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining turli mintaqalarida 650 dan ortiq umurtqali hayvonlari, shu jumladan, 79 dan ortiq qushlar, 99 ta sutemizuvchilar turlari va tur vakillari uchraydi. Faqat Sirdaryo va Amudaryo vohasida joylashgan suv omborlari va ko'llarda baliqlarning 60 turi, ambfibiyaalarning 3 turi

uchraydi. Respublikamizda sudralib yuruvchilarning 57 turi, sutemizuvchilarning 91 turi va qushlarning 410dan turi uchraydi.

6. 1929-yil Turkistonning g'arbiy qismida tashkil etilgan birinchi qo'riqxonada hozirgi kunda qanday ataladi? (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

7. O'zbekiston hududida tashkil etilgan uchinchi qo'riqxonada qanday nomlanadi va qayerda tashkil etilgan? (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

8. Berilgan hukmlarni o'qing hamda ushu hukmlar oxiriga "to'g'ri", "noto'g'ri" jumlaridan mosini yozing.

1. O'zbekiston Respublikasining turli qit'alarida 650 dan ortiq umurtqali hayvonlari, shu jumladan, 79 dan ortiq qushlar, 99 ta sutemizuvchilar turlari va tur vakillari uchraydi.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

2. Qizil kitobni boshqacha qilib qayg'u-alam kitobi ham deyiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

3. O'zbekiston Qizil kitobi XX asr ikkinchi yarmida tashkil topgan.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

4. Respublikamizda sudralib yuruvchilarning 57 turi, sutemizuvchilarning 91 turi va qushlarning 410dan turi uchraydi.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

9. Quyida 4 ta hukm berilmoqda. Ushbu hukmlarni o'qing hamda matn mazmunidan kelib chiqib ularning "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" ekanligini yozma ifodalang.

(Umumiy 5 ball)

1. XIX asrning 1- yarmida BMT qoshidagi Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni boshqaruvchi va konsultasiya beruvchi organ – Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi tuzildi.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

2. Sobiq ittifoqda XIX asrning 1- yarmida "Qizil kitob" ta'sis etilgan bo'lib, 1978- yilda "Qizil kitob" chop etildi.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

3. Uchinchi qo'riqxonada – XX asrning 2-yarmida Toshkent viloyatining Ohangaron va Parkent tumanlari atrofida tashkil qilingan bo'lib, maydoni 22000 gektardan 35686 ga kengaytirilgan.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

4. O'zbekistonda, birinchi qo'riqxonada – 1929- yilda Turkistonning g'arbiy qismida tashkil qilingan bo'lib, 80000 gektar (ga) maydoniga ega.



Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

10. Quyidagi gaplar yakunlanmagan. Siz ularni shunday yakunlangki, natijada yuqoridagi matnga xos bo'lgan to'g'ri hukmlar hosil bo'lsin.

(Umumiy 5 ball)

1. \_\_\_\_\_ - bu hujjat bo'lib, u insonning vijdonidir. Har qaysi millat dunyo oldida o'zining tabiat boyliklarini asrash mas'uliyatini olgan.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

2. O'zbekistonda, birinchi qo'riqxonona - 1929 yilda \_\_\_\_\_ g'arbiy qismida tashkil qilingan.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

3. Xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan \_\_\_\_\_ turlari 4 ta toifaga bo'lingan: Yo'qolib borayotgan turlar; Kamayib borayotgan turlar; Noyob-nodir turlar; Noaniq turlar.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

4. Dunyoda umumiy qushlar va hayvonlarning 4/1 qismi tabiiy sabablar natijasida yo'qolgan bo'lsa, 3/4 qismi esa \_\_\_\_\_ ta'sirida yo'qolgandir.

Javob: \_\_\_\_\_ 1,25 ball

11. Gaplar va sintaktik tahlilga oid izohlar (A–F) ni o'zaro to'g'ri moslashtiring.

(Umumiy 5 ball; har bir tog'ri moslashtirish uchun 1,25 balldan)

Gaplar	Izohlar	Javob
1. Men hammasiga chidadim, chunki shunga majbur edim.	A)atov gap B)shaxsi (egasi)	
2. Kelasi yili shaharga o'qishga ketadi.	umumlashgan gap C)hol ergash gap	
3. Men maktabdagi do'stimni, Akmalni, ko'rib qoldim.	D)ajratilgan bo'lakli gap E)shaxsi (egasi)ma'lum gap	
4. Iltimos, eshikni yopib yuring.	F)undalmali gap	

12. Atrofda bo'layotgan voqealarni chuqur tahlil qilish kerak, aks holda yolg'onga aldanib umringiz o'tib ketadi.

Ushbu gapda qatnashgan fe'llar haqida berilgan ma'lumotlarni "ha" yoki "yo'q" tarzida ifodalang hamda mos javobni doiracha ichiga oling.

(Umumiy 5 ball)

- |  |             |
|--|-------------|
| 1) hozirgi zamon sifatdoshi qatnashgan. HA/YO'Q          | (1,25 ball) |
| 2) sabab ravishdoshi qatnashgan. HA/YO'Q                 | (1,25 ball) |
| 3) qo'shma fe'l sifatdosh bo'lib kelgan. HA/YO'Q         | (1,25 ball) |
| 4) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan. HA/YO'Q | (1,25 ball) |

13. Yoz katta davlat-la va soz o'tmoqda.

Ushbu gapda shakldoshiga ega bo'lgan har bir so'z asosining shakldoshi ishtirokida alohida-alohida 4 ta gap tuzing va yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)
2. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)
3. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)
4. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)


14. Quyida berilgan so'zlarning uchinchisini yozing, natijada sinonimik qator hosil bo'lishiga erishing.

(Umumiy 5 ball)

- A) osmon – falak – \_\_\_\_\_ (1,25)
- B) to'satdan – daf'atan – \_\_\_\_\_ (1,25)
- C) bemor – kasal– \_\_\_\_\_ (1,25)
- D) yalqov – dangasa – \_\_\_\_\_ (1,25)

15. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.

(5 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

16. Berilgan gapda qo'llanilishi lozim bo'lgan tinish belgilarining to'g'ri ketma-ketligini yozing. O'rtog'im dedi Kim shaharga ketmoqchi Men o'zim bilan birga olib ketaman

(5 ball; aniqlangan har qanday kamchilik uchun 0 ball qo'yiladi)

Javob: \_\_\_\_\_

17. Gapda qaysi qo'shimchanning qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilgan?

Ahmadni eng yomon ko'rgani shunaqa tund bo'lib, gaplashmay yurish edi. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

18. Gapni sintaktik tahlil qiling va qaysi gap bo'lagi uyushganini yozing.

Agar ushbu vositalar har bir kesimga qo'shilsa, bunday gap uyushiq kesimli sodda gap emas, qo'shma gap hisoblanadi.

(5 ball; aniqlangan har qanday kamchilik 0 ball qo'yilishiga sabab bo'ladi)

Javob: \_\_\_\_\_

19. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishini tahlil qiling.

Men uning jasorati va mardligi, chidam va sadoqatiga qoyil qoldim.

*(Umumiy 5 ball)*

a) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelanib bog'langan so'zni yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

b) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan teng munosabatda bog'langan so'zlar yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

20. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang. Savollarga javob yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Biz o'z bilimimizni kun sayin chuqurlashtirib boraylik.

2. Vatan oldidagi o'z burchimizni muvaffaqiyatli hal qilaylik.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to'g'ri bog'lash mumkin?

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

b) natijada qo'shma gapning qaysi turi hosil bo'ladi?

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

**Tekshiruvchi:** \_\_\_\_\_

## 5-Variant

### I. O‘QIB TUSHUNISH:

#### BOSH MIYA

##### 1- matn. 1-5-savollar

Nerv sistemasi inson organizmini boshqaruvchi sistema bo‘lib, uning tafakkurini belgilab beradi. [1] *Ya’ni inson miyasi uning aqliy faoliyati, dunyoqarashi, fikrlashi va ongning fiziologik asosi hisoblanadi.* Bir so‘z bilan aytganda, organizmning tashqi muhit bilan aloqasini ta’minlaydi. Bosh miya kalla suyagining ichida joylashgan bo‘lib, inson o‘sib borgan sari u ham rivojlanib boradi. Insonning bosh miyasi o‘rtacha 100 mlrd neyrondan tashkil topgan bo‘lib, u jigarda ishlab chiqarilib qonga quyilgan glukozaning 50% ini “iste’mol” qiladi. Bosh miyani tashkil etayotgan neyronlar o‘zaro nerv impulslarini 270 km/soat tezlikda uzatadi. Neyronlarning soni ko‘paymasligi haqida barchamiz o‘qiganmiz, lekin neyronlar inson hayoti davomida o‘sib turadi. [2] *Bitta neyron istalgan ensiklopediyadagi ma’lumotlarga ko‘ra besh barobar ko‘p ma’lumotni eslab qola oladi.* Miya hujayralari oksibiont hujayralar qatoriga kirib, ular qon aylanish tizimiga tushgan kislorodning 20% ini ishlatadi. Shu bilan birga, miyaning 80% ini suv tashkil etadi, shu boisdan ham odam doimiy ravishda yetarli miqdorda suv ichib turishga ehtiyoj sezadi. Bosh miya odam tana massasining o‘rtacha 2% ini tashkil etadi. U o‘rtacha 1000 – 2000 gramm oralig‘ida bo‘lishi mumkin. Ba’zan bu ko‘rsatkich kam yoki ortiq bo‘lishi mumkin. Shunisi hayratlanarliki, insonning aqliy faoliyati uning o‘lchamiga bog‘liq emas. Misol uchun, buyuk kimyogar olim Dmitriy Ivanovich Mendeleev bosh miyasining og‘irligi 1571 gramm, Ivan Sergeyeovich Turgenevning bosh miyasining og‘irligi esa 2012 gramm bo‘lgan. Demak, insonning aqliy faoliyati bosh miyaning massasiga emas, uning po‘stloq qismidagi nerv hujayralarining xususiyatiga bog‘liq. Bosh miya ikki qismdan tashkil topgan: miyaning stvol, ya’ni ust qismi va bosh miyani o‘rab turuvchi bosh miya katta yarimsharlari. Miyaning ustun qismi uzunchoq miya, miya ko‘prigi, o‘rtamiya, oraliq miya va miyacha kabi qismlardan iborat. Uzunchoq miya bosh miyaning eng pastgi qismi bo‘lib, yuqori tomondan miya ko‘prigiga tutashadi. Uzunligi 3-3,5 sm bo‘lib, og‘irligi 7 gramm. Uzunchoq miya nafas olish, ovqat hazm qilish va qon aylanish kabi sistemalar ishini boshqarib, uning shikastlanishi nafas olish va yurak ishining to‘xtab qolishiga sabab bo‘ladi. Miya ko‘prigi uzunchoq miyaning ustki qismida joylashgan bo‘lib, yuqoridan o‘rta miyaga va yon tomondan miyachaga tutashib turadi. [3] *Miya ko‘prigiga ko‘z soqqasining harakati va yuzdagi mimika muskullarini harakatlantiruvchi nerv markazlari joylashgan.* O‘rta miya miya ko‘prigining yuqori tomonida joylashgan. Unda to‘rtta tepalik bo‘lib, oldingi ikkitasida po‘stloqosti ko‘rish, orqadagi ikkita tepalikda esa po‘stloqosti eshitish markazlari joylashgan. Bosh miyaning mana shu sohasida ovqatni chaynash va yutish reflekslari, ko‘rish, eshitish, qo‘l barmoqlarining nozik harakatlari va muskullar tarangligini ta’minlovchi nerv markazlari joylashgan. Oraliq miya o‘rta miyaning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, yuqori tomondan bosh miya katta yarimsharlari bilan qoplanib turadi. Oraliq miya ko‘rish do‘mbog‘i va do‘mboqosti sohalaridan iborat. Miyacha inson tanasidagi turli harakatlarning asosi bo‘lib, bosh miya katta yarimsharlarning ostki qismida joylashgan. Og‘irligi 150 gramm. Agar miyacha zararlangan, tana muskullari bo‘shashadi va odam tik turish, yurish, sakrash, yugurish mashqlarini bajarishi qiyinlashib, mast odamga o‘xshab gandarab harakatlanadi. Miyaning ikkinchi qismi bo‘lgan bosh miya katta yarimsharlari bosh miyaning yuqori tomondan qoplab, uni himoya qilib turadi. U o‘ng va chap yarimsharlardan iborat bo‘lib, qadoqsimon tana yordamida bir-biridan ajralib turadi. U kulrang moddadan tashkil topgan tashqi qavat va oq moddadan iborat ichki qavatdan

tuzilgan. Uning qalinligi 2,5-3 mm. Po‘stloq qavati tekis bo‘lmasdan, xuddi yong‘oq kabi juda ko‘p burmalardan iborat. [4]Miya po‘stlog‘ining bunday tuzilishi unda juda ko‘p sonli nerv hujayralarining joylashuviga imkon beradi. Binobarin, miyaning po‘stloq qismida 14-16 milliard atrofida nerv hujayralari mavjud. Qizig‘i shundaki, miya po‘stlog‘i pushtalarining soni deyarli barcha odamlarda bir xil bo‘lib, lekin ularning tuzilishi xuddi inson kaft chiziqlari singari xilma-xil bo‘ladi. Agar miya sharining bunday pushta va egatlari yozib chiqilsa, umumiy sathi 1468-1670 sm<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Bosh miya katta yarimsharlarining hujayralari bajaradigan funksiyaga ko‘ra po‘stloq sathi uchta zonaga bo‘linadi. Birinchisi ko‘rish zonasidagi hujayralar barcha sezgi organlarining asosiy markazi bo‘lib, teri, ko‘rish, eshitish, hid va ta‘m bilish kabi sezgi organlari retseptorlaridan qabul qiladi. Harakat zonasidagi hujayralar odam organizmidagi barcha muskul, suyak, pay va bo‘g‘imlarning oliy markazi hisoblanadi. Assotsiativ zona hujayralari esa miya po‘stlog‘ining turli qismlaridagi nerv markazlarini bir-biri bilan bog‘laydi. Bu zona hujayralari sezish va harakat zonasidan kelgan impulslarni analiz va sintez qiladi. Bosh miya organizmdagi hamma a‘zolarining kelishib ishlashini ta‘minlaydi. Shuningdek, u zararlansa, jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

1. Yuqoridagi matn asosida 4 ta gap shakllantirilgan. Siz ushbu gaplarni o‘qib “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” jumllarini mos tarzda yozib chiqing.

1.Odamning dunyoqarashi, aqliy faoliyati yuqori darajada bo‘lishi bosh miyasining hajmiga bog‘liq.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Bosh miya hujayralari qondagi kislorodning asosiy qismini ishlatadi, shuning uchun inson tez-tez suvsaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Kimyogar olim Dmitriy Ivanovich Mendeleev va adabiyotshunos Ivan Sergeyevich Turgenevning bosh miya massalari bir-biri bilan mutanosib.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Og‘irligi 10 000 gramm (10 kg) chiqadigan bolaning bosh miyasi o‘rtacha 200 gramm (0,2 kg) chiqadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Raqamlab ko‘rsatilgan gaplarning qaysinisi matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan bo‘lsa o‘sha gapni ko‘chirib yozing. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

3. Matnni o‘qing. Uning mazmunidan kelib chiqib berilgan quyidagi fikrlarni matn mazmunida “aks etgan” yoki “aks etmagan” degan mos javoblar bilan xulosalang.

(Umumiy 5 ball)

1. Miya po‘stlog‘i pushtalarning tuzilishi odamlarda bir-biridan farq qiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Bosh miyaning assotsiativ zonasi hujayralari sezish va harakat qismidan kelgan impuls signallarni tahlil qiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Bosh miya katta yarimsharlarining tashqi va ichki qavati o‘zaro bir xil rangda bo‘ladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Bosh miya katta yarimsharlari sathi hujayralarining amalga oshiradigan vazifasiga ko‘ra uchta katta qismga bo‘linadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Matn mazmunidan kelib chiqib 4 ta gap berilgan. Ularning “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” ekanini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Uzunchoq miya va u bilan bog‘liq turli zararlanishlar insonning o‘limiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Oraliq miyaning zararlanishi insonning jismoniy harakatlarini cheklashi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Miya po‘stlog‘idagi nerv hujayralari umumiy miya hujayralarining asosiy qismini tashkil etadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. O‘rta miya funksional jihatdan faqat ko‘rish va eshitish funksiyasini bajarishga moslashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

5. Quyidagi 4 ta faraz keltirilmoqda. Ulardan qaysi bir faraz o‘z isbotini topgan yoki topmaganiga ko‘ra javoblar qatoriga “isbotini topgan” yoki “isbotini topmagan” jumalalaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Bosh miyaning barcha jihatdan o‘zgarmasligi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Miya hujayralari (neyronlar)ning yosh o‘tgani sari ko‘payib borishi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Miyaning asosiy qismini suv tashkil etishi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Bosh miya ikki va undan ortiq qismlardan tashkil topganligi

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

**Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

## 2-matn Nurning sinishi (6-10 savollar)

### 2-matn 6-10 savollar

Nurning sinishi — yorug‘lik har xil sinish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan ikkita muhitni ajratish yuzasiga qiyalik bilan tushganda paydo bo‘ladigan optik hodisa. Bu sodir bo‘lganda yorug‘lik yo‘nalishini va tezligini o‘zgartiradi. Sinish, masalan, yorug‘lik havodan suvga o‘tganda paydo bo‘ladi, chunki bu uning sinishi ko‘rsatkichiga ega. Hovuzda tananing shakllari o‘zgarishini yo‘nalishdan chetga chiqayotganda juda yaxshi baholash va kuzatish mumkin. Bu to‘lqinlarning har xil turlariga tasir qiladigan hodisa. (1) *Yorug‘lik hodisasi bizning kundalik hayotimizda eng ko‘p ishtirok etadigan narsadir.* Yorug‘likning sinishi uchun tushuntirishni gollandiyalik fizik Villebrord Snell van Royen taklif qildi va u qonunni tushuntirib, “Snell qonuni” deb nomlandi. Yorug‘likning sinishiga alohida e‘tibor bergan yana bir olim Isaak Nyuton edi. (2) *Uni o‘rganish uchun Snell mashhur shisha prizmani yaratdi.* Prizmada nur uning yuzlaridan biriga singib, turli ranglarga ajralib chiqadi. Shu tarzda yorug‘likning sinishi hodisasi orqali u oq nur kamalakning barcha ranglaridan iborat ekanligini isbotladi.

Yorug‘likning sinishini o‘rganishda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy elementlar quyidagilardir:

- tushayotgan nur, bu ikki fizik muhitning ajratish yuzasiga qiyalik bilan tushadigan nurdir;
- sinish nurlari, ya‘ni uning yo‘nalishini va tezligini o‘zgartirib, vositadan o‘tuvchi nurdir;
- ikki muhitni ajratish yuzasiga perpendikulyar bo‘lgan xayoliy chiziq bo‘lgan normal chiziq;
- tushish burchagi (i), u normal nur bilan tushadigan nur hosil qilgan burchak sifatida aniqlanadi;
- nur sinishi burchagi (r), bu normal sinishi bilan hosil bo‘lgan burchak sifatida aniqlanadi;

(3) *Bundan tashqari, muhitning yorilish tezligi va muhitdagi yorug‘lik tezligining miqdori bo‘lgan muhitning sinish ko‘rsatkichi (n) ham hisobga olinishi kerak.* Bu nuqtayi nazardan shuni esda tutish kerakki, vakuumdagi yorug‘lik tezligi 300,000,000 m/s qiymatini oladi. Snell qonunining yana bir muhim natijasi — bu chegara burchagi deb nomlanadi. U 90° sinish burchagiga to‘g‘ri keladigan tushish burchagi deb ham nomlanadi. Jarayon sodir bo‘lganda, singan nur ikki muhitni ajratish yuzasi bilan bir tekis harakat qiladi. Ushbu burchak kritik burchak deb ham ataladi. Chegaraviy burchakdan kattaroq burchaklar uchun to‘liq ichki aks ettirish deb ataladigan hodisa ro‘y beradi. Bu sodir bo‘lganda, hech qanday sinish bo‘lmaydi, chunki butun yorug‘lik nuri ichki tomonda aks etadi. To‘liq ichki aks ettirish faqat yuqori sindirish ko‘rsatkichiga ega muhitdan pastroq sinish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan muhitga o‘tishda sodir bo‘ladi. Umumiy ichki aks ettirishning bir usuli bu nurni energiya yo‘qotmasdan optik tolalar orqali o‘tkazishdir. (4) *Buning yordamida biz optik tolali tarmoqlar tomonidan taqdim etilayotgan ma‘lumotlarni uzatishning yuqori tezligidan bahramand bo‘lamiz (Internet, wi-fi...).*

Siz shunga o‘xshash tajribani lazer ko‘rsatkichi bilan sinab ko‘rishingiz mumkin. Albatta, lazer nuri ko‘rinishini yaxshilash uchun stakan suvga bir necha tomchi sut quyish kerak. Bunday holda, yorug‘lik nurining yo‘lini yaxshiroq baholash uchun tajribani kam yorug‘lik sharoitida o‘tkazish tavsiya etiladi. Ikkala holatda ham tushishning turli burchaklarini sinab ko‘rish va ularning o‘zgarishi bilan sinish burchagi qanday o‘zgarishini kuzatish qiziq. Ushbu optik ta‘sirning sabablarini biz havodagi rasmga nisbatan qalam tasvirini (yoki lazerdagi yorug‘lik nurini) suv ostida egilib ko‘rinishini keltirib chiqaradigan yorug‘likning sinishida topishimiz kerak. Yorug‘likning sinishi bugungi kunning ko‘plab holatlarida kuzatilishi mumkin. Ba‘zilarini allaqachon nomladik, boshqalarini quyida izohlaymiz. Sinishning bir natijasi shundaki,



basseynlar mavjud bo'lganidan sayozroq ko'rinadi. Sinishning yana bir shakli shuki, kamalak atmosferada mavjud bo'lgan suv tomchilari orqali yorilib sinishi sababli paydo bo'ladi. Xuddi shu hodisa yorug'lik nurining prizma orqali o'tishi bilan sodir bo'ladi. Yorug'likning sinishining yana bir natijasi shundaki, biz Quyosh botishini uning sodir bo'lishidan bir necha daqiqa o'tgach kuzatamiz.

6. Quyida matn mazmunidan kelib chiqib fikrlar keltirilgan. Ushbu fikrlar oxiriga mos tarzda "ha" yoki "yo'q" javoblarini yozib chiqing.

1. Yorug'likning sinishi — yorug'lik bir xil sinish ko'rsatkichiga ega bo'lgan ikkita muhitni ajratish yuzasiga qiyalik bilan tushganda paydo bo'ladigan akustik hodisa.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Quyoshning botishi biz ko'rgandan ko'ra biroz oldin sodir bo'lgan bo'ladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3.  $90^\circ$  sinish burchagiga to'g'ri keladigan nimqorong'i joyda sinab ko'rish tavsiya etiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Kamalakning paydo bo'lishida nurning sinishi muhim omil emas.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

7. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? Ushbu gapni ko'chirib yozing. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

8. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda quyida berilgan hukmlar oxiriga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" jumlasidan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Yorug'likning sinishi sodir bo'lganda yorug'lik yo'nalishini va tezligini o'zgartirmaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Yorug'lik nurining prizma orqali o'tishi, kamalakda jilokorlik Nyuton nazariyasida tushish burchagi ham Nyuton ixtirosi bilan bog'liq.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. To'liq ichki aks ettirish faqat pastroq sindirish ko'rsatkichiga ega muhitdan yuqori sinish ko'rsatkichiga ega bo'lgan muhitga o'tishda sodir bo'ladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Sinishning bir natijasi shundaki, basseynlar mavjud bo'lganidan chuqurroq ko'rinadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

9. Quyida 4 ta gap berilmoqda. Ularni matn mazmunida aks etgan yoki aks etmaganligiga ko'ra javob yozib to'ldiring.

(Umumiy 5 ball)

1. Vakuumdagi yorug'lik tezligi eng kichik m/s qiymatni o'z ichiga oladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Sinish faqat yorug'lik havodan suvga o'tganda paydo bo'ladigan jarayondir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Lazer nuri ko'rinishini yaxshilash uchun stakan suvga bir necha tomchi sut quyish tavsiya etiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Stakan bilan tajriba o'tkazilayotganda yorug'lik nurining yo'lini yaxshiroq baholash uchun ushbu tajribani kam yorug'lik sharoitida o'tkazish kerak.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

10. Quyida 4 ta fikr keltirilmoqda. Siz ushbu fikrlarni yorug'likning sinishi nazarayasiga aloqasi bo'lgan yoki bo'lmaganiga tayangan holatda "aloqasi bo'lgan" yoki "aloqasi bo'lmagan" jumalari bilan to'ldiring.

1. Yorug'likning sinishi — bugungi kunning ko'plab holatlarida kuzatiladigan jarayon.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Ikki muhitni ajratish yuzasiga perpendikulyar bo'lgan xayoliy chiziq bo'lgan normal chiziq yorug'likning sinishini o'rganishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy elementlardan biridir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Chegara burchagida singan nur ikki muhitni ajratish yuzasi bilan bir tekis harakat qiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Yorug'likning sinishi faqat issiq ob-havo sharoitida, quyoshli kun bilan parallel ravishda amalda ko'rinadigan nazariyadir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

11. Quyidagi jadval ichida keltirilgan topshiriqlarni o'qing hamda chap tarafdagilarni o'ng tomondagilar bilan o'zaro moslashtiring.

Gaplar (1, 2, 3, 4) va sintaktik tahlilga oid izohlar (A–F) ni o'zaro to'g'ri moslashtiring.

(Umumiy 5 ball; har bir tog'ri javob 1,25 ball dan)

Gaplar	Izohlar	Javob
--------	---------	-------

11. Men hammasiga chidadim, chunki shunga majbur edim.	A)atov gap	
12. Kelasi yili shaharga o'qishga ketadi.	B)shaxsi (egasi) umumlashgan gap	
13. Men maktabdagi do'stimni, Akmalni, ko'rib qoldim.	C)hol ergash gap	
14. Iltimos, eshikni yopib yuring.	D)ajratilgan bo'lakli gap	
	E)shaxsi (egasi)ma'lum gap	
	F)undalmali gap	

12. Berilgan so'zlarni o'qing hamda imloviy xato so'zlarni to'g'rilab, barcha 10 ta so'zni ko'chirib yozing. Izoh: Bunda so'z imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan bo'lishi ham mumkin. So'zlar: Ta'nali, ma'dadkor, ma'rifiy, obidasta, naridan-beri, hayyo-hay, foto-apparat, azbaroyi, Ochil dasturxon, Qorbobo.

(Umumiy 5 ball; har bir to'g'ri yozilgan so'z uchun 0,5 balldan)

Javob:

---



---



---

13. Har bir gap yakuniga "termoq" so'zining o'z yoki ko'chma ma'noda kelganligini "o'z ma'no" yoki "ko'chma ma'no" so'zlarini yozish bilan ifodalang.

(Umumiy 5 ball)

1. Men yoshlikdan otamga qarashdim, poda boqdim, mashoq terdim. Javob:

(1,25 ball)

2. Futbol komandasiga kuchli o'yinchilar terib olindi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Nigor oyim oshxonada mantilarni qasqonga terib, qozonga uyar, Ra'no bo'lsa, ayvonda kichkina ukalari orasida o'tirar edi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. La'lixon gaplashishga telefon oldiga bordi, trubkani qo'liga olib, kerakli nomerlarni tera boshladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

14. Berilgan har ikki so'zning yakuniga uchinchisini qo'shing, natijada sinonimik qator hosil bo'lishiga erishing.

(Umumiy 5 ball)


1. Mashmasha, mojaro \_\_\_\_\_ . (1,25 ball)

2. Taalluqli, daxldor \_\_\_\_\_ . (1,25 ball)

3. Orom, osoyish \_\_\_\_\_ . (1,25 ball)

4. Ko'rkam, latofatli \_\_\_\_\_ . (1,25 ball)

15. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qiladigan so'zni yozing. (5 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

16. Berilgan gapda qo'llanilishi lozim bo'lgan tinish belgilarining to'g'ri ketma-ketligini yozing.  
 Odob o'rgatsalar quloq sol deydi Yusufiy Birov odob o'rgatsa o'rganmagan kishi hayvon kabidir  
 (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

17. Gapda qaysi qo'shimchani qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilgan?  
 Hojiyevning uzun gapidan chiqqan qisqa xulosa shu bo'ldi: bugungi avlod o'z ajdodlarga munosib voris bo'lmoqda.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

18. Gapni sintaktik tahlil qiling va qaysi gap bo'lagi uyushganini yozing.  
 U menga o'zining barcha bilganlarini muloyimlik, qunt va sabr bilan o'rgatgan, shuning uchun bir umr undan qarzdorman. (5 ball; javobdagi har qanday kamchilik 0 ball qo'yilishiga sabab)

Javob: \_\_\_\_\_

19. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishini tahlil qiling.  
 (Umumiy 5 ball)

"Bu bebaho ganjni ko'z qorachig'iday asragayman, do'stim", - dedi va yugurgancha chiqib ketdi.

a) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelanib bog'langan so'zni yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

b) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan teng munosabatda bog'langan so'zlar yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

20. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.  
 (Umumiy 5 ball)

1. Mening jaydari bir falsafamdir shu.

2. Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to'g'ri bog'lash mumkin?

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

b) natijada qo'shma gapning qaysi turi hosil bo'ladi?

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISh:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

**Tekshiruvchi:** \_\_\_\_\_

## 6-Variant

### O'QIB TUSHUNISH:

#### ZILZILA

##### 1- matn. 1-5-savollar

Yer silkinishining oqibatlarini tugatishda ishga yaroqlik har bir kishi ishtirok etishi zarur va quyidagi ishlar birlamchi hisoblanadi:

- Yer tagida, buzilgan va yonayotgan uyda qolgan odamlarni qutqarish;
- Ishlab chiqarish, kommunal-energetik tizimlarda sodir bo'ladigan avariyaalarning oldini olish va to'g'rilash (chunki bular inson hayotiga xavf soladi);
- Buzilgan uylarni, inshootlarni tiklash;
- Talofat ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish shoxobchalarini tayyorlash;
- Yer silkinishi o'chog'ida suv ta'minotini tiklash.

Yer silkinishi boshqa turdagi tabiiy ofatlarni, falokatlarni, masalan, yer surilishi, suv toshqini, qor ko'chkisi, yong'in chiqishi hamda avariyaalarni: kommunal-energetik tizimlarining izdan chiqishi, kimyo sanoati korxonalarida avariya natijasida KTZMLarning tashqariga to'kilishi, AESlarda radioaktiv moddalarni atmosferaga chiqishi va boshqa xavfli ofatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ammo, hozirgacha yer silkinishining aniq vaqtini va joyini ayta oladigan uslub yo'q, lekin yerning tavsifli xususiyatlari, tirik mavjudodlarning xatti-harakatlari o'zgarishiga qarab olimlar yer silkinishi xaqida muayyan ma'lumotlarni beradilar. [1] *Yer silkinishini belgilaydigan ayrim ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: kuchsiz tebranish chastotasining keskin o'sishi, yerni deformatsiyalanishi, tog' jinrlarining elektr qarshiligi o'zgarishi, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, yer osti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o'zgarishlar.* Bulardan tashqari, yer silkinishi oldidan uy hayvonlarining xatti-harakatlari ham o'zgaradi. Masalan, mushuklar tashqariga chiqib ketadilar, qushlar o'z uyalaridan uchib chiqadilar, chorva mollari juda bezovta bo'lib qoladilar va boshqalar. Fan va texnikaning rivojlanishi so'zsiz yer silkinishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Jumladan, yuqorida ta'kidlanganidek yer osti suvlarida yer silkinishidan oldin radon gazi miqdorini oshish qonunini birinchi bo'lib o'zbek olimi "G".Mavlonov" tomonidan aniqlangan va bu qonuniyat Toshkent zilzilasi oqibatlarini o'rganishda o'z tasdig'ini topdi. Hozirgi kunda bu usul bilan Respublikamizda va Markaziy Osiyo davlatlarida ro'y bergan bir necha zilzilalar bashorat qilindi va ular tasdiqlandi. O'zbekiston olimlarining bunday kashfiyoti bilan qiziqqan Amerika olimi O.Jems shunday degan edi: „Yaqin kunlarda o'zbek mutaxassislari zilzila haqidagi bashoratni xuddi iqlim sharoitini bashorat qilgandek radio orqali e'lon qilish darajasiga etib boradilar“. Lekin bu yerda shuni aytib o'tish kerakki, yer silkinishning oldindan bashorat qilish muammosi hali butunlay hal etilmagan. Bunga birdan bir sabab bu masalaning murakkabligi, ya'ni zaminda yer silkinish jarayonini vujudga keltiradigan gipotsentr-o'choqning nihoyatda yashirinligi hamda shu „o'choqda“ yig'ilgan va yer silkinishiga olib keladigan energiyaning hamda uning sodir bo'lish qonuniyatlarini hali yetarlicha bilmasligimizdadir. Yer silkinishi ofatidan muhofaza qilishning bir usuli bu oldindan seysmoaktiv mintaqalarni belgilash hisoblanadi. [2] *Vulqon jarayoni, ya'ni yer ostidagi magmani vulqon kanali orqali yer yuzasiga chiqishi bilan bog'lik bo'lgan yer silkinishiga vulqonli yer silkinishi deyiladi.* Bunda insonlar uchun, xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun xavfli bo'lgan 7-8 balli yuqori yer silkinishi mumkin bo'lgan joylarni belgilab xarita tuziladi. Mana shunday seysmoaktiv mintaqalarda oldindan turli muhofaza omillari ko'rib, inshootlarni ko'rish, ta'minlash va ba'zi xavfli ishlab chiqarish tarmoqlarini (kimyo zavodlari, AESlar va shunga o'xshash korxonalarni) xatto to'xtatish

ishlari amalga oshiriladi. Shunday ishlar, ya'ni O'zbekistonning seysmoaktiv hududlari xaritasi 1977-yilgacha amal qilib keldi va hozirgi kunda O'zbekistan Fanlar Akademiyasining seysmologiya instituti tomonidan 1997-yilda O'zbekistonning yangi seysmoaktiv xaritasi tuzilib, bunda har bir hududning seysmologik xususiyatlari hisobga olingan. [3]Yangi xaritada ko'rsatilishicha O'zbekistonning mintaqalarida bo'lishi mumkin bo'lgan yer silkinishlari belgilangan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida — 6 ballgacha; Xorazm va Samarqand viloyatlarida - 7 ballgacha; Toshkent, Qarshi, Buxoro, Termez, Namangan, Farg'ona shaharlarida — 8 ballgacha; Andijon viloyatida — 9 ballgacha belgilangan. Shuningdek, seysmoaktiv xaritada Toshkent shahri uchun ham 6-9 ballgacha bo'ladigan mikroseysmoaktiv hududlar ham belgilab qo'yilganki, hozirgi kunda mana shu ma'lumotlar asosida Toshkent shahrida maqsadli qurilishlar amalga oshirilmoqda. [4]Shu yerda ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizda 136 ta shahar mavjud bo'lib, ulardan 13 tasi yirik shaharlar hisoblanilgan. Shaharlarda qurilishlar 5 ta toifa bo'yicha amalga oshirilib, ular kattakichikligidan qat'i nazar halqa yo'li bilan belgilanishi zarur. Chunki favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni faqat tranzit yo'llari orqali (jumladan, halqa yo'llari orqali) harakat qilishga yo'naltirilishi lozim.

1. Quyida matn mazmunidan kelib chiqib hukmlar keltirilgan. Ushbu matnga mos yoki mos emasligiga tayangan holda humlar ostiga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" jumllaridan birini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Zilzila davomida mushuklar ichkariga kirib ketadilar, qushlar o'z uyalaridan uchib chiqadilar, chorva mollari juda bezovta bo'lmaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni halqa yo'llari orqali harakat qilishga yo'naltirilishi lozim.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Yer silkinishini belgilaydigan ayrim ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: kuchli tebranish chastotasining keskin o'sishi, yerni deformatsiyalanishi, tog' jinslarining elektr qarshiligi o'zgarishi, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, yer usti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o'zgarishlar

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Avvalo, talafot ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish shohobchalarini tayyorlash zilzila oqibatlarini yo'qotadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirayotgan bo'lsa, o'sha gapni ko'chirib yozing.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

3. Quyida 4 ta ma'lumot berilmoqda. Ushbu ma'lumotlarni matn mazmunida aks etishi yoki etmasligiga tayangan holda "aks etgan" yoki "aks etmagan" jumllaridan mosini ma'lumot ostiga yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Xaritada Toshkent shahri uchun ham 6-9 ballgacha bo'ladigan makroseysmoaktiv hududlar ham belgilab qo'yilgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Kimyo zavodlari, AESlar va shunga o'xshash korxonalarini to'xtatish ishlari amalga oshirilmadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Yer silkinishi oldidan uy hayvonlarining xatti-harakatlari ham o'zgaradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Hozirgi kunda Samarqand shahrida maqsadli qutilishlar olib borilmoqda.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Quyida 4 ta gap shakllantirilgan. Ushbu ma'lumotlar yuqoridagi matn mazmuniga mos tarzda shakllantirilgan yoki shakllantirilmaganligiga qarab "to'g'ri" yoki noto'g'ri so'zlaridan mosini javob qatoriga yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Hozirgi kunda O'zbekistan Fanlar akademiyasining seysmologiya instituti tomonidan 1977-yilda O'zbekistonning yangi seysmoaktiv xaritasi tuzilgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Yer osti suvlarida yer silkinishidan oldin radon gazi miqdorining oshish qonunini birinchi bo'lib Jeyms foydalangan edi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Yer silkinishning oldindan bashorat qilish muammosi, axiyri, butunlay hal etildi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. O'zbekistonda va Markaziy Osiyo davlatlarida bir necha zilzilalar bashorat qilindi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

5. Quyida 4 ta jarayon keltirilmoqda. Yuqoridagi matnda keltirilgan ma'lum jarayonlar orqali zilzilalarni oldindan bashorat qilish haqidagi ma'lumotlarga tayanib, javob qatoriga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" so'zlaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Randon gazi miqdori oshadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Mushuklar tashqaridan ichkariga kira boshlaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Qushlar o'z uyalaridan chiqa boshlashadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)



4. Chorva mollari bezovta bo'la boshlaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

## 2-matn. 6-10-savollar.

Yupiter (arablarda Mushtariy) Quyoshdan beshinchi o'rinda joylashgan bo'lib, uni "sayyoralar qirollari" deb atashadi. U barcha sayyoralar ichida eng kattasi va o'z o'qi atrofida tez aylanuvchi sayyora hisoblanadi. **1) Uning diametri Yernikiga nisbatan 77 marta, o'lchami jihatidan 318 marta katta.** U osmondagi yorqinligi bo'yicha Quyosh, Oy va Veneradan keyin turadigan to'rtinchi obyektidir. Yupiter Quyosh tizimidagi eng katta va Quyoshdan uzoqligi bo'yicha beshinchi sayyoradir. U Saturn, Uran, Neptun singari gazli gigantlardan hisoblanadi. Bu sayyora juda qadim zamonlardan odamlarga ma'lum bo'lgan. Yunonlarda Zevs, rimliklarda Yupiter (momaqaldiroq xudosi) nomi bilan atalgan. Yupiterning hozirgi kunda 67 ta yo'ldoshlari bor.

Atoqli Italiya astronomi Galileo Galiley 1610- yilda Yupiterning to'rtta katta yo'ldoshini kuzatgan. O'sha yillar bu yo'ldoshlarni nemis astronomi Simon Marius ham kuzatgan va 1614-yili ularni Yevropa, Ganimed, Kallisto nomlari bilan atagan. Bu yo'ldoshlarning barchasi yorqin va Yupiterdan uzoqlashgan orbitalar bo'ylab harakat qilishadi. **2) Yupiterning Yevropa yo'ldoshi keyingi paytlarda olimlar e'tiborini o'ziga qaratgan yo'ldosh hisoblanadi.** Chunki uning tarkibida kislorod yuqori bo'lgan tarqoq atmosferasi mavjud ekan. Bu yo'ldosh muz qatlamlari ostida muzlab qolmaydigan okean va unda mikroskopik hayot mavjud degan fikrlar ham yo'q emas. Ammo bu yo'ldosh yuzasini balandligi 15 metr keladigan muz nayzalari qoplagan bo'lib, ular kosmik apparatlarni uning sathiga qo'ndirishda jiddiy to'siq bo'lishi ham mumkin. Yupiterni olimlar qaynab turgan suyuq vodorod okeani deb atashadi. Yadrosini hisobga olmaganda, bu sayyora atmosferasi tarkibining 60 foizini molekulyar vodorod, 36 foizini geliy, 3 foizi neon, 1 foizga yaqin ammiak va metan tashkil etadi. Yerga nisbatan u Quyosh energiyasini 27 marta kam oladi. Shuning uchun Quyosh nuri tushgan va eng ko'p isiydigan sirtidagi temperatura minus 100,150 gradus atrofida bo'ladi. **3) Atmosferadagi chang-bulutlar Yupiter aylanib turgani sabab uning ekvatori tomon intilib, halqalar ko'rinishini olgan.** Uning yo'ldoshlaridan 4 tasi - Adrastiya, Fiva, Metida va Amalteyalar ana shu halqalar ichida harakat qiladi. Gamiliya deb ataluvchi halqasi 2000 yildan keyin Yupiter yo'ldoshlaridan birining boshqa yo'ldoshiga to'qnashishi tufayli yuzaga kelgan parchalardan tashkil topgan.

Biz yuqorida sayyoraning Yevropa yo'ldoshi to'g'risida biroz ma'lumot bergan edik.

**4) Bundan oldin u tomon uchirilgan "Galiley" ASS uning birinchi sun'iy yo'ldoshiga aylangan edi.** Uning lo yo'ldoshi ham ancha qiziqarli yo'ldoshlardan biridir. Bu yo'ldosh Yupiterga eng yaqin, Yupiter atrofida unga sinxron aylanib turadi, ya'ni uning Yupiter atrofida aylanish davri Yupiterning o'z o'qi atrofida aylanish davriga teng. Demak, lo Yupiterga bizning Oy kabi faqat bir tomoni bilan qaragan bo'ladi. U Quyosh tizimida eng faol va kattaligi jihatidan to'rtinchi yo'ldoshdir. Unda 400 dan ortiq harakatdagi vulqonlar mavjud. Bundan tashqari, loda tog'lar ham nihoyatda ko'p. Hatto Janubiy Boosava tog'i Yerdagi Jomolungma tog'idan ikki barobar baland hisoblanadi. Teleskopda kuzatilganda Yupiter sirtida ekvator bo'ylab qora belbog'lar ko'rinadi.

Bu belbog'lar vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi. Bundan ko'rinayotgan hodisalar uning sirtida emas, balki atmosferasiga tegishli, degan xulosa kelib chiqadi. Yupiter gardishida bunday o'zgarib turadigan belbog'lardan tashqari, deyarli doimiy, o'zgarmaydigan detallar ham kuzatiladi.

6. Quyida matn mazmuniga tayangan holda shakllantirilgan 4 ta gap berilmoqda. Ushbu

gaplardan qaysinisi matn mazmuniga mos yoki mos emasligiga qarab “mos” yoki “mos emas” jumllaridan birini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Sayyorada hayot mavjudligi haqidagi farazlar uning sirtidagi muz qatlamining atmosfera haroratiga bog‘liq.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Yupiter tabiiy yo‘ldoshlarining u bilan mutanosib harakatlanishi sayyoraning o‘zaro oraliq masofasidan kelib chiqadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. Yupiter belbog‘larining gohida o‘zgarib turishi sayyora radiusining turli muz nayzalaridan tashkil topganligidan dalolat.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Sayyora halqalari uning harakatidan hosil bo‘lib, sayyora atrofida belbog‘ ko‘rinishi olgan.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

7. Raqamlab ko‘rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan bo‘lsa, o‘sha gapni ko‘chirib yozing. *(5 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

8. Quyida 4 ta ma‘lumot keltirilmoqda. Ushbu ma‘lumotlarni matn mazmunida aks etgan yoki aks etmaganiga tayanib mos ravishda “aks etgan” yoki “aks etmagan” jumllari bilan to‘ldiring.

1. Yupiter yorqinligi bo‘yicha Quyosh, Oy va Venera kabi osmon jismlari bilan bir qatorda turadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Yupiterdagi gaz miqdori Saturn, Uran va Neptun sayyoralaridan ko‘ra ko‘proqni tashkil qiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. Simon Marius tomonidan nomlangan tabiiy yo‘ldoshlar sayyora halqalari ichida harakatlanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Sayyora tabiiy yo‘ldoshlari nemis va italyan olimlari tomonidan bir paytda o‘rganilgan.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

9. Quyida 4 ta ma‘lumot keltirilmoqda. Javob qatoriga ushbu ma‘lumotlarning matn mazmuniga mosligiga qarab “to‘g‘ri ifodalangan” yoki “noto‘g‘ri ifodalangan” jumllarini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Yupiterning katta qismini geliydan tashkil topgan, shuning uchun olimlar uni qaynab turgan suyuq vodorod okeani deb atashadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Gamiliya deb ataluvchi halqasi bundan 2000 yil avval Yupiter yo‘ldoshlari to‘qnashuvidan hosil bo‘lgan.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. lo yoʻldoshining sinxron aylanib turishi Oy kabi sayyoraga faqat bir tomonlama koʻrinish imkonini beradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Yevropa yoʻldoshidagi harakatdagi vulqonlar undagi mikroskopik hayotning mavjudligi haqidagi farazlarni yoʻqqa chiqaradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

10. Quyida 4 ta maʼlumot keltirilgan. Ushbu maʼlumotlarning qaysinisi Yupiterning lo yoʻldoshiga tegishli ekaniga qarab javob qatoriga “tegishli” yoki “tegishli emas” jumlaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Eng koʻp Quyosh nuri tushib, isiydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Balandligi 15 metr keladigan muz nayzalari bilan qoplangan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Yerga nisbatan 27 marta kam Quyosh energiyasini oladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Yupiterga eng yaqin va eng faol yoʻldosh hisoblanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

11. Quyida keltirilgan 3 ta gapdagi “qora” soʻzi oʻzaro shakl va maʼno munosabatiga koʻra qanday soʻz ekanligini yozma ifodalang.

(5 ball)

1. Mergan boʻlsang, oʻshal ogʻochni qoraga olib otgʻil.

2. Sof nomusiga otilgan qorani butunlay yuvib tashlashga jazm qildi.

3. Nimqorongʻida ruxsordagi noʻxatdek qora xolini aniq koʻrdi.

Javob: \_\_\_\_\_

12. Quyida berilgan soʻzlarni shunday guruhlariga ajratingki, natijada 4 ta sinonimik qator hosil boʻlsin.

Chiroyli, zavq, ilgarigi, xursandchilik, burungi, kayfiyat, avvalgi, qadimiy, xushroʻy, zebo, oldingi.

(Umumiy 5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

13. Quyida 4 ta gap berilmoqda. Berilgan gaplar yakuniga ushbu gaplarda qoʻshimcha qoʻllash bilan bogʻliq xatolik bor yoki yoʻqligini “mavjud” yoki “mavjud emas” tarzida yozing.

1. Shahar bankida yongʻin boshlanganligi haqidagi qalbaki maʼlumotni oʻt oʻchirish qismiga Hasanovning oʻzi xabar qilgan edi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Tavba, xo‘p alomat odam-da. Bu qo‘tir dunyoda shunaqa odamoxunlar borligiga hech aqlim yetmaydi. Bor ekan-da!

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Otlarning kishnashi, odamlarning hoy-huyulashi manzilning yaqinligini bildirar edi.


Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Asqar mulla dam solar, band qilib, tumor bitib berar edi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

14. Ajratib ko‘rsatilgan har uchala so‘z bilan ma‘nodoshlik hosil qila oluvchi so‘zni yozing.

(5 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

15. Berilgan gapda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan tinish belgilarining to‘g‘ri ketma-ketligini yozing.

(Umumiy 5 ball)

Navbatdagi safarga hozirlik ko‘ryapmiz dedi Zokirjon aka Bu galgi yo‘nalishimiz Hindiston Sizing taklifingizni bilmoqchiman

Diqqat!To‘g‘ri javobni tinish belgilari yordamida aks ettiring.

Javob: \_\_\_\_\_

16. Gapda qaysi qo‘shimchaning qo‘llanishi bilan bog‘liq uslubiy xatolik kuzatilgan?

Taqdir taqozosi bilan badaviylar oilasida tug‘ilsam, ellik darajali issiqqa quturgan qum bo‘roni men uchun eng go‘zal manzara bo‘lur edi.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

14. Quyida berilgan gapda “qora” so‘zi qaysi ma‘noda qo‘llanmoqda?

Oppoq qorda odamlarning qorasi yelib yugurardi.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

18. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishini tahlil qiling.

Haqiqiy iste‘dod boshqalar ko‘rmagan narsani topadi va o‘sha “narsa” **insonni**, xalqni, boringki, jamiyatni qayoqqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi.

(Umumiy 5 ball)

a) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelanib bog'langan so'zni yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

b) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan teng munosabatda bog'langan so'z yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

19. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.

1. Maktabimizda sport klubi doimiy faoliyat olib bormoqda.

2. Klub a'zolari yildan yilga turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

(Umumiy 5 ball)

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to'g'ri bog'lash mumkin?

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

b) natijada qo'shma gapning qaysi turi hosil bo'ladi?

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

20. Berilgan parchadagi to'liqsiz gapda qaysi gap bo'lagi tushib qolgan? Luqmoni hakimdan:

“Hikmatni kimdan o'rgangansan?” – deb so'radilar. Luqmoni hakim shunday javob berdi:

“Ko'rlardan o'rgandim. Ular oyoqlari ostini yaxshilab tekshirmay turib qadam bosmaydilar”.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

**Tekshiruvchi:** \_\_\_\_\_

## 7-Variant

### I.O'QIB TUSHUNISH:

#### QO'LGA QALAM OLAYLIK!

##### 1-matn 1-5-savollar

Nobel mukofotini har yili kutuvchi yaponlar Oktabr oyi kelishi bilan butun Yaponiya xalqi yangiliklarni kuzatadi, zero aynan oktabr oyining boshida Nobel mukofoti laureatlari e'lon qilinadi. Bu yil ham yaponlar o'zlari kuchli bo'lgan sohalar – tibbiyot, fizika, kimyo va adabiyot sohalarida biror yapon mukofot olishini kutishdi. Katta telekanallar marosimni to'g'ridan to'g'ri uzatib turdi. Olimlari mukofot olishi ehtimoli yuqori bo'lgan universitetlar jurnalistlar uchun matbuot anjumani o'tkazishga shaylanishdi. Bu yil biror yapon olimi Nobel ololmadi. Ammo bunaqa – mukofot kutish muhitining o'zi yaponlarning ilmga bo'lgan muhabbatidan, dunyo ilmiga qo'shayotgan hissasidan darak. Men yashaydigan hududdagi Gifu va Toyama viloyatlarini bog'lagan 41-davlat yo'li bo'ylab Nobel mukofoti egalari yo'lagi bor. Aynan shu hududda 5 nafar Nobel laureati sohiblari yetishib chiqqan. Yaponlarning bu darajaga yetishi ortida nima turadi, bilasizmi? Bunga ko'p faktorlar ta'sir qilgan bo'lsa-da, bir jihatni alohida aytish kerak – yapon olimlari dunyoda mavjud ilmni o'rganib, keyin bu ilmni o'z davlatlariga kitob yozish orqali tashib keltirishgan. Oqibatda bir kun kelib ilmning deyarli xohlagan sohasini yapon tilida yozilgan kitoblar orqali o'rganish imkoni paydo bo'ldi. Dunyoda qaysi sohada yangi tendensiya paydo bo'lsa, yapon olimlari yo o'sha sohada kitob yozib millatiga tanishtiradi, yoki biror o'zga tilda yozilgan kitobni tezda yapon tiliga o'giradi. Demak, bir millatning ilm yo'lidagi odimi o'sha mamlakatning qay darajada ilmlar bilan to'yinganiga, ilm sohalarining o'sha mamlakat ichiga ona tilida kirib kelganiga bog'liq ekan. Shunday ekan, biz – o'zbek tadqiqotchilari va olimlari dolzarb ilm sohalarini va ularga oid kitoblarni xalqimizga to'xtovsiz ravishda tanishtirishimiz darkor. Hamkasblaringa murojaat qilmoqchiman: ilmlarni yurtimizga “tashib kelish”ga bel bog'laylik. Boshqacha qilib aytganda, ilmni yurtimizga qaytarishimiz kerak... O'zbeklarni tavsiflash so'ralganda men “u haqda dunyo biladigan, ammo o'zini o'zi bilmaydigan xalq” degan bo'lardim. Biz o'zimizni tanishimiz, o'zimiz bilan yuzma-yuz kelishimiz uchun chet elliklarning biz haqimizda yozgan kitoblarini o'z tilimizga o'girishimiz kerak. Kinomiz, oilaviy hayotimiz, an'analarimiz, siyosatimiz, iqtisodimiz, tariximiz haqida o'zgaralar yozgan kitoblarini o'qishimiz kerak. Barchasi daqiq darajada tadqiq etilgan... Ko'rib yoqa ushlaysiz. Biroq xalqimiz unday kitoblarni bilmaydi, o'qiy olmaydi. Natijada biz o'zimizni ham yaxshi bilmaydigan, tanimaydigan xalqmiz. Bu esa olim-tadqiqotchilarning aybi va mas'uliyatsizligi... [1] Bizda muammo... Shaxsiy rivojlanish va marketingga oid kitoblarni chop etish va o'qish yaxshi, ammo mamlakatning asl muvaffaqiyatini iqtisod, fizika, tarix, siyosat, geografiya, biologiya, kimyo va hokazo imlarni o'rganish ta'minlaydi. Bu sohalarini xalqimizga oson tushuntirib beradigan katta va kichik kitoblar taqchilligi – kundek ravshan.

Masalan:

- Koronavirus pandemiyasi va uning oqibatlariga oid o'zbek tilida biror kitob yozildimi?
- Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari bilan chegaraviy va suv muammolarimiz mavjud. Mavzuni to'laqonli ochib beradigan biror kitob bormi?
- Iqlim o'zgarayotgani haqida eshityapmiz. Aslida nima bo'layotganini, Parij bitimining o'rnini, mintaqamizning keyingi 30-40 yillik kelajagini tushuntiradigan kitob bormi?

• Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitini yaqinda o'tkazdik. Xo'sh, ushbu tashkilot nima va undan bizga keladigan foydalar-u, undagi tortishuvlar haqida biron xalqaro xavfsizlik sohasidagi olim bizga kitob yozib berdimi?

[2] O'zbek tilida dunyoni o'rganib bo'lmayapti Xitoy, Rossiya, Hindiston, Qozog'iston – nima bilamiz bu mamlakatlar haqida? Dunyo siyosati, iqtisodi va tarixi haqida o'zbek tilida kitoblar nechta? Aniq fanlarga oid kitoblar yozish kerak. Ta'lim sohasi, muvaffaqiyatga erishgan davlatlar, millatlar tajribasi haqida yozish kerak. [3] Bizni hozir kimdir o'rganyapti... Xitoyning tadqiqotga yo'naltirilgan universitetlarida bizni obdan o'rganishyapti. Rossiyada ham, Yevropa Ittifoqida ham, Yaponiya va Koreyada ham – bizni o'rganishyapti. Hind olimlari ham to'xtovsiz bizni kuzatish va tahlil qilishda davom etishmoqda. Biz esa hatto o'zimizni o'rganmayapmiz... Rossiya BMT nizomiga xilof ravishda Ukrainaga bostirib kirdi. Men yashaydigan Yaponiyada shu 6 oy ichida Rossiya siyosati va uning Ukraina davlati bilan aloqasiga oid o'nlab kitoblar chiqdi. Bu hali men bilganlarim. Biz esa OAVdagi xabarlarini kuzatamiz, xolos... [4] “SSSRcha” kitob yozmaylik Faqat biz SSSR zamonidan qolgan, turli nazariyalarni kategoriyalarga bo'lish, sinflarga ajratish va shundayicha bor faktini gapirib qo'yishga o'xshagan ichi to'la “suv” kitoblar yozmasligimiz kerak. Kitobxonga bu kerakmas. Nega yoshlar ko'p kitob sotib olmaydi? Chunki kerakli kitob yo'q-da! Biquqlik yuzaga kelgan. Fan sohasiga oid kitoblar juda ham kam yoki deyarli yo'q. “Men sohamda monografiya chiqarib qo'rganman, Alisher Navoiy kutubxonasida turibdi” o' “Kerak bo'lsa, topib o'qib ol” kayfiyati – mas'uliyatsizlik. Bir oylik chaqaloq sut ichgisi kelsa, onasi muzlatgichga sut qo'yib, borib o'zing ichib olaver degandek gap bu. Millat olimlari kitobxonni o'ziga tortib olishi lozim. Buning uchun qiziqarli, jonli uslublarni qo'llash kerak. Ijtimoiy tarmoqda men duch kelgan savol-javob: Savol: Assalomu alaykum, kitobxonlar. Ilmingiz bundan-da ziyoda bo'lsin. Bir iltimosim bor edi. Pedagogikaga yangicha yondashuv, o'zgacha qarashlar mavjud bo'lgan, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi haqidagi ilmiy asarlarni tavsiya etsangiz, xususiy maktab ta'limiga yangilik kiritish niyatimiz bor. Oldindan rahmat. Javoblar: — Chet elni qo'ying, milliy adabiyotni oling. — Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari. Aftidan, bir pedagog xususiy maktabda ishlaydi (balki uning direktoridir) va unga hozirda rivojlangan davlatlardagi ta'lim tizimi haqida yozilgan, pedagogika sohasiga oid ona tilimizdagi kitoblar kerak. Va u savolini ko'ndalang tashlab, shunday kitob bo'yicha xabar berishini so'rayapti. Ammo javoblarning biri milliy adabiyotga qaytishga chaqirayotgan bo'lsa, boshqasi 100 yil avval yozilgan jadid ajdodimiz Abdulla Avloniyga yo'naltiryapti... 21-asrda yashayotgan bizlar Avloniydan ilhomlanishimiz shart, ammo u va uning kitoblari 100 yil keyingi davr uchun amaliy maslahatlar bera olmaydi. Milliy adabiyot esa zamonaviy ta'lim masalasida biror qo'lga ilinarli kitobni taqdim etmagan. Pedagog olimlarga savol: Finlandiya, Yaponiya, AQSh, Angliya, Misr, Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy kabi davlatlarning ta'lim tizimiga oid tizimli kitoblar yozish payti kelmadimi? Kitob yozish uchun hammada ham PhD tituli yoki universitet diplomi bo'lishi shart emas. O'zini mutaxassis hisoblagan barcha kitob yoza oladi.

1. Quyida yuqoridagi matn mazmunidan kelib chiqib shakllantirilgan 4 ta gap keltirilmoqda. Javob qatoriga “to'g'ri shakllantirilgan” yoki “to'g'ri shakllantirilmagan” jumllaridan mosini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. O'zbek xalqi kitob o'qish va uni sotib olishdan ko'ra OAVdan yangiliklarni bilib olishni afzalroq deb hisoblashadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*



2. Yoshlarimiz uchun aniq va tabiiy fanlarga oid ilmiy kitoblarni o'qishdan ko'ra oson pul topish yo'llarini o'rgatadigan kitoblarni ko'p o'qishmoqda .

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Minglab foydali nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari turli nazariyalarni kategoriyalarga bo'lish, sinflarga ajratish va shundayicha bor faktni ko'chirib qo'yish bilan cheklangan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Bizda yaponlarda bo'lgani kabi o'z ona tilimizdagi ilmiy, siyosiy sohalarga oid kitoblar deyarli yo'q.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Raqamlab ko'rsatilgan mavzulardan qaysinisida ilmiy sohalarni xalqimizga oson tushuntirib beradigan katta va kichik kitoblar taqchilligini ifoda qilinayotgan bo'lsa, o'sha gapni javob qatoriga ko'chirib yozing.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

3. Quyida 4 ta gap keltirilmoqda. Ushbu gaplarning matn mazmuniga mos yoki mos emasligiga asoslangan holda javob qatoriga "mutanosib" yoki "nomutanosib" so'zlaridan birini yozish bilan fikringizni ifodalang.

(Umumiy 5 ball)

1. Yapon olimlari aniq fanlarga oid, ta'lim sohasi, muvaffaqiyatga erishgan davlatlar, millatlar tajribasi haqida ko'plab kitoblarni yapon tilida yozishgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlar tadqiqotchilari va olimlari dolzarb ilm sohasini va ularga oid kitoblarni xalqiga to'xtovsiz ravishda o'z ona tilida tanishtirib borishadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Pedagogikaga yangicha yondashuv, o'zgacha qarashlar mavjud bo'lgan, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi haqidagi ilmiy asarlar, afsuski, bizda deyarli juda oz yoki yo'q.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Bizning tadqiqotchilarimiz, olimlarimiz aniq, tabiiy fanlar, jahondagi mavjud siyosiy vaziyat haqida xalqqa oson tilda kitob yozishga qobiliyati yo'q.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda qanday tipdagi kitoblar bizda ayni damda ko'p o'qilayotganini javob qatoriga yozing.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

5. Quyida 4 ta taqqoslash berilgan. Ularning matn mazmunida aks etgan yoki aks etmaganiga asoslanib, “aks etgan” yoki “aks etmagan” jumllalaridan mosini yozing.

1. Yapon xalqining ilmga bo‘lgan muhabbati yuqori darajada, o‘zbek xalqida esa yo‘q.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Yaponiyada ilmning deyarli xohlagan sohasini yapon tilida yozilgan kitoblar mavjud, O‘zbekistonda esa ona tilida yozilgan bunday kitoblar yo‘q.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Yaponiyada kitob yozish uchun hammada ham PhD tituli yoki universitet diplomi bo‘lishi shart emas degan qarash mavjud, bizda esa aksincha.


Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Yaponlar o‘z millati haqida boshqa mamlakatlar olib brogan tadqiqotlarni mukammal o‘rganish natijasida o‘zlarini tanigan xalq, o‘zbeklar esa dunyo tanigan ammo o‘zlarini o‘zlari tanimaydigan millat.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

11. Ajratib ko‘rsatilgan har uchala so‘z bilan ma‘nodoshlik hosil qila oluvchi so‘zni yozing.

(5 ball)




Javob: \_\_\_\_\_

12. Quyida ko‘zi ochiq shakldosh iborasi anglatgan 1 ta ma‘no berilmoqda.

Javob qatoriga ushbu ibora shakldoshining lug‘aviy ma‘nosini yozing.

(5 ball)



Javob: \_\_\_\_\_

13. Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarining to‘g‘ri ketma-ketligini yozing.

Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub asarida Yaxshi-yomonning fe‘lini bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen deb yozadi

(5 ball)

Diqqat: Javob qatoriga tegishli tinish belgilarini tegishli tartib asosida yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

14. Berilgan parchadagi yasama sifat narsaning qanday belgisini ifodalab kelgan?

Qoramtir libos tantanalar, marosimlar uchun mos, salobatli va juda ulug‘vor libos hisoblanadi. Qora libos hamisha sariq, yam-yashil, oqish liboslar bilan uyg‘unlashadi. Yoshlar bu kabi liboslarni qizil bilan kiyishni ayniqsa yoqtirishadi.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

15. Gapdagi ko‘p nuqta o‘rniga mazmun va grammatik jihatdan mos keluvchi yordamchi so‘zni yozing.

Dushmanning hiylasiga aldanma va maddohning maqtovini bir pulga olma, ... biri makr tuzog‘ini qo‘ygan va ikkinchisi tamagirlik qilgan bo‘ladi.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

16. Gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z tobelangan hokim so‘zni aniqlang.

Masofaviy ta‘lim – ta‘lim oluvchilarning zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda **masofadan** turib egallashiga qaratilgan ta‘lim shaklidir.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

17. Parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zning sintaktik vazifasini aniqlang.

Vujuding – bir shahar, yaxshi bor, **yomon**, Vaziring aqlingdur, sen unga sulton.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

18. Berilgan parchadagi to‘liqsiz gapda qaysi gap bo‘lagi tushib qolgan?

Luqmoni hakimdan: “Hikmatni kimdan o‘rgangansan?” – deb so‘radilar. Luqmoni hakim shunday javob berdi: “Ko‘rlardan o‘rgandim. Ular oyoqlari ostini yaxshilab tekshirmay turib qadam bosmaydilar”.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

19. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishini tahlil qiling.

Haqiqiy iste‘dod boshqalar ko‘rmagan narsani topadi va o‘sha “narsa” **insonni**, xalqni, boringki, jamiyatni qayoqqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi.

(Umumiy 5 ball)

a) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z tobelanib bog‘langan so‘zni yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

b) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan teng munosabatda bog‘langan so‘z yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

20. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1. Maktabimizda sport klubi doimiy faoliyat olib bormoqda.

2. Klub a‘zolari yildan yilga turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar.

*(Umumiy 5 ball)*

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

b) natijada qo‘shma gapning qaysi turi hosil bo‘ladi?

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

Tekshiruvchi: \_\_\_\_\_

## 8-Variant

### I.O'QIB TUSHUNISH:

#### 1-matn 1-5- savollar

Molekula bu bir xil yoki har xil bo'lgan, bir-biriga bog'langan va moddalar xususiyatlariga ta'sir qilmasdan yoki yo'q qilmasdan ajratib bo'lmaydigan atomlar guruhidir. Molekula moddaning tarkibi va kimyoviy xususiyatlarini saqlaydigan eng kichik qismidir degan qadimiy tushuncha mavjud. Ammo, bugungi kunda ma'lumki, moddaning kimyoviy xossalari ajratilgan molekula bilan emas, balki ularning minimal to'plami bilan belgilanadi. Ko'pgina ma'lum moddalar molekulalardan tuzilgan, masalan, shakar, suv va ko'pgina gazlar, boshqa ma'lum moddalar tuzlar, metallar, kristall panjaralar, ko'zoynaklarning ko'pi va asil gazlar kabi tuzilish jihatidan molekulyar emas. (1) *Demak, barcha moddalar molekulyardir.* Kimyoda barqaror va elektr neytral tizim hosil qiladigan kamida ikkita kovalent bog'langan atomlar to'plami molekula deb ataladi. Molekulalarning ba'zi bir misollari: ikkita kislorod atomlari birlashganda kislorod molekulasini hosil qilganda va uglerod atomi (musbat zaryad +4) ikkita kislorod atomlari bilan birikkanda (har biri manfiy zaryad -2) karbonat angidrid molekulasini hosil qiladi. (2) *Bu faqat fizik hodisada kuzatiladi.* Molekulalarni o'rganadigan bir qancha fanlar mavjud. Masalan, deyarli barcha organik kimyo va noorganik kimyo molekulalar va molekulyar birikmalarning sintezi va reaktivligi bilan bog'liq. Fizik kimyo va, ayniqsa, kvant kimyosi ham molekulalarning xossalari va reaktivligini o'rganadi, shuningdek, kerak bo'lganda miqdoriy jihatdan o'rganadi. Biokimyo molekulyar biologiya bilan chambarchas bog'liq, chunki ikkalasi ham tirik mavjudotlarni molekulyar darajada o'rganadi. Molekulalar orasidagi o'ziga xos o'zaro ta'sirlarni o'rganish, shu jumladan, molekulyar tanib olish supramolekulyar kimyoni o'rganish sohasidir. (3) *Ushbu kuchlar eruvchanligi yoki molekulyar birikmaning qaynash temperaturasi kabi fizik xususiyatlarini tushuntiradi.* Nisbatan sodda birlikni yoki aytilgan birliklarning cheklangan to'plamini takrorlash natijasida hosil bo'lgan va nisbatan yuqori molekulyar og'irliklarga yetgan molekulalar makromolekulalar yoki polimerlardir. (4) *Bunga sabab hajm doirasining kichikligidir.* Odatda murakkab organik kimyo kabi molekulalar uchun kimyoviy formulalar yetarli emas va strukturaviy formuladan yoki skelet formuladan foydalanishga arziydi, ular turli xil funksional guruhlarning fazoviy joylashishini grafik jihatdan ko'rsatib beradigan narsadir.

1. Quyida 4 ta gap shakllantirilgan. Ushbu gaplar ostidagi javob qatoriga gaplarning matn mazmuniga mos yoki mos emasligiga ko'ra "to'g'ri" hamda "noto'g'ri" so'zlaridan birini kiriting.

(Umumiy 5 ball)

1. Biokimyo molekulyar biologiya bilan chambarchas bog'liq, chunki murakkab organik kimyo kabi molekulalar uchun kimyoviy formulalar yetarlidir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Deyarli barcha organik kimyo va noorganik kimyo molekulalar va molekulyar birikmalarning sintezi va reaktivligi bilan bog'liq.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Strukturaviy formuladan yoki skelet formuladan foydalanishga asos shuki, kimyoviy formulalar yetarli darajadagidir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Shakar, suv va ko'pgina gazlar, boshqa ma'lum moddalar tuzlar tuzilish jihatdan molekulyardir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Quyida 4 ta ma'lumot keltirilmoqda. Ushbu ma'lumotlarni matn mazmunida aks etgan yoki etmaganiga tayanib aks etgan yoki aks etmagan jumllaridan mosi bilan to'ldiring.

(Umumiy 5 ball)

1. Polimerlar – nisbatan yuqori molekulyar og'irliklarga yetgan molekular.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Fizik kimyo va kvant kimyo tirik mavjudotlarni molekulyar darajada o'rganadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Asil gazlar tuzilishi molekulyarlardan iborat.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Kimyoda barqaror va elektr neytral tizim hosil qiladigan kamida ikkita kovalent bog'langan molekular to'plami atom deb ataladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirmagan bo'lsa, o'sha gapni ko'chirib yozing.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

4. Quyida 4 faraz keltirilmoqda. Ushbu farazlarning bugungi kunda xato yoki xato emasligiga ko'ra "xato" hamda "xato emas" so'zlaridan mosi bilan to'ldiring.

(Umumiy 5 ball)

1. Molekular orasidagi o'ziga xos o'zaro ta'sirlarni o'rganish supramolekulyar kimyoni o'rganish sohasidir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Molekula moddaning tarkibi va kimyoviy xususiyatlarini saqlaydigan eng kichik qismidir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Nisbatan sodda birlikni yoki aytilgan birliklarning cheklangan to'plamini takrorlash natijasida hosil bo'lgan molekular makromolekulalardir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Moddaning kimyoviy xossalari ajratilgan molekula bilan emas, balki ularning minimal to'plami bilan belgilanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

5. Quyida 4 ta gap keltirilmoqda. Ushbu ma'lumotlarning matn mazmuniga mos yoki mos emasligiga ko'ra "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" javoblaridan mosi bilan yakunlang.

(Umumiy 5 ball)

1. Molekulalarni faqat kimyo fani o'rganadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Karbonat angidrid molekulasining hosil bo'lishida uglerod va vodorod ishtirok etadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Noorganik kimyo molekulalarning xossalari va reaktivligini o'rganadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Tirik mavjudotlarni molekulyar darajada biokimyo va molekulyar biologiya o'rganadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

## 2-matn. 6-10-savollar

1. Yaponiya hozirda eng ko'p hikikomori yoki qisqacha hikki deb ataluvchi shaxslar yashaydigan mamlakat sanaladi. Xo'sh, hikkilar kimlar? Hikkilar o'z ixtiyorlari bilan jamiyatdan uzilgan, ijtimoiy aloqalardan deyarli uzoq yuradigan, o'qishni ham, ishni ham tashlab qo'ygan odamlardir. Bugungi kunga kelib Yaponiyada 800 000 dan ortiq (Yaponiya Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 1 millionga yaqin) hikki istiqomat qiladi. Ularning o'rtacha yoshi o'ttizni tashkil etadi.

2. Hikki umrini oddiy, deyarli bir xil ssenariyda o'tkazadi. U o'zining jonajon xonasida uxlaydi, kompyuter, telefon yoki televizor bilan "ishlaydi", maxsus anonim forumlarda suhbatlashadi, anime tomosha qiladi, komikslar o'qiydi, ijod qiladi yoki shunchaki yolg'izlik va jimjitlikdan rohatlanadi.

Hikikomoriga aylanib qolish sababi hammada ham bir xil emas: bunga kimdadir shaxsiy fe'l-atvor, kimdadir sotsiofobiya va yana kimdadir tushkunlik yoki autistik spektrning buzilishi sabab bo'ladi. Ijtimoiy hayotdagi muammolar, masalan, o'qish yoki ishdagi zo'ravonlik (bulling) fonida hikkilar sohiliga o'tib olganlar ham uchraydi. Hikkilar uchun haqiqiy hayot tunda – hamma uxlagandan keyin boshlanadi. Xona sharoitida nimani xohlashsa, shuni amalga oshirib vaqt o'tkazishadi. Ular do'konlarga ham chiqib turishadi va bu jihati bilan agorafoblardan farqlanishadi.

3. Yaponiyada hikikomori muammosiga yechim topish va uni hal qilishga davlat miqyosida e'tibor qaratiladi. Bu yerda jamiyatdan uzoqlashishga harakat qilayotgan odamlar uchun maxsus yordam markazlari tashkil etilgan. Albatta, bu yapon fenomeni boshqa mamlakatlarda ham uchrab turadi, lekin aynan Yaponiyada keng ko'lamli hodisaga aylangan. ***Ehtimol, kunchiqar yurtda hikikomorining ildiz otishi ko'pchilikning o'smir yoshidagi farzandlarini to'liq ta'minlash uchun yetarlicha shart-sharoitga ekanligi bilan bog'liqdir.*** Bu nazariya asossiz emas: daromadi pastroq bo'lgan oila vakillari orasida hikikomorilar juda kam uchraydi. Bundan tashqari, yapon mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari ham bu hodisaga eshik ochib beradi: Yaponiyada yoshlar kattalarga qattiq tayanadi: ota-ona qaramog'ini afzal ko'rgan 30 yoshli "o'smir"lar bu yurtda ko'p uchraydi.

4. Hikikomori hodisasi 1989-yilda Yaponiyada kasallik turi deb e'lon qilingan. Hikkilarni davolash uchun odatda ota-onalarning o'zlari harakat qilib ko'rishadi. Natija bo'lavermagach, psixolog yollashadi. Davolashning bu turi bo'yicha xizmat ko'rsatadigan nodavlat tashkilotlar ham talaygina. Afsuski, ko'p hollarda barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi. Samarali yakun topgan



muolajalar tahlili diqqatni tortmay qo‘ymaydi: hikkini jamiyatga qaytara olgan mutaxassislarning aksari sobiq hikkilar ekan.

6. Quyida 4 ta ta’rif keltirilmoqda. Ulardan qaysinisi “hikkilar kimlar?” degan savolga mos yoki mos emasligiga tayanib “mos” yoki “mos emas” javoblaridan munosibini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Ota-ona qaramog‘ini afzal ko‘rgan 30 yoshli “o‘smir”lar.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Shunchaki yolg‘izlik va jimjitlikdan rohatlanadigan fobiyaga uchragan o‘smirlar.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. Faqat o‘z xonasida uxlaydigan, kompyuter, telefon yoki televizor bilan ishlaydilar, psixolog maslahatiga muhtoj, daromadi past bo‘lgan oila bolasi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Jamiyatdan ajralgan, e’tiborsiz qolgan yoshlar.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

7. Quyida 4 ta ma’lumot keltirilmoqda. Ulardan qaysinisi matn mazmuniga mos yoki mos emasligiga tayanib “mos” yoki “mos emas” javoblaridan munosibini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Hikkilarni davolash har doim samarasiz bo‘lgan.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Hikkilarni davolashga asosan ota-onalar tashabbus ko‘rsatishadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. Yaponiya millionga yaqin hikki istiqomat qiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Bu holat kunchiqar mamlakatda kasallik turi sifatida qayd etilgan.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

8. Yuqoridagi matnda raqamlab ko‘rsatilgan qismlar mavjud. Ushbu qismlardan qaysinisida hikkikumorilarning umumiy tavsifi berilgan bo‘lsa, o‘sha qism raqamini yozing.

*(5 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_

9. Matnning 4-qismida yordamchi so‘z turkumlariga oid birliklarning qaysilari ishtirok etgan bo‘lsa, o‘sha turkum(lar) nomini javob qatoriga yozing.

*(Umumiy 5 ball; javodagi har qanday kamchilik 0 ball qo‘yilishiga sabab bo‘ladi)*

Javob: \_\_\_\_\_

10. Matnning 3-qismda ajratib ko‘rsatilgan gap haqidagi ma‘lumotlarni “Ha” yoki “Yo‘q” tarzida belgilang.

(Umumiy 5 ball)

1. Modal so‘z qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Otlashgan sifatdosh qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Tasviriy ifoda mavjud.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Juft so‘z ishtirok etgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

11. Quyida 10 ta so‘z berilgan. Ushbu so‘zlarni orfografik normalarga muvofiq tarzda javob qatoriga ko‘chiring.

(Umumiy 5 ball; har bir to‘g‘ri yozilgan so‘z uchun 0,5 ball)

Tomosha, tanavul, majoro, ruhsat, chirmoviq, tutunmoq, bir talay, dam badam, muomila, talofat.

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

12. Quyida berilgan so‘zlarning uchinchisini yozing, natijada sinonimik qator hosil bo‘lishiga erishing.

(Umumiy 5 ball)

1. G‘amgin – qayg‘uli – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Shuhrat – dong – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Xabardor – voqif – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Yuvosh – royish – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

13. Quyida keltirilgan gaplarda turli qo‘shimchalar tushirib qoldirilgan. Ushbu qo‘shimchalarni tiklang hamda qo‘shimchalarni tegishli tartibga asosan javob qatoriga ko‘chirib yozing.

(Umumiy 5 ball)

a) Uning avtobus... tushib kel...ini ko‘rgan choyxonadagi odamlar hang-mang bo‘l... qolishdi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

b) Bobur bu hodisa... haqida otasidan ham ko‘p maroq... hikoyalar eshitgani... esladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

c) U bandi...ka solingan xona... kecha-yu kunduz musiqa ovozi eshi...ilib turgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

d) Huquq...ning xohish-istagi... binoan, bankir... chorbog‘ida miltiqdan ikki marta o‘q uzildi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

14. Samimiy, mehribon, oqko'ngil buvijonim nabiralarini erkalatib gapiradi. Ushbu gap haqida berilgan ma'lumotlarni "ha" yoki "yo'q" tarzida ifodalang.

(Umumiy 5 ball)

1. Uyushiq sifat qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Ot+ot shaklidagi qo'shma sifat qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Shaxs otining ega vazifasini bajarishi kuzatiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Ushbu gapdagi barcha yasama so'zlar sifat turkumiga oid.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

15. Hamma **kechki** sayrga otlangan edi .

Yuqoridagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zning asosi bilan shakldosh bo'lgan so'zni qatnashtirib gap tuzing.

(5 ball)

Javob:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

16. "Do'ppisini osmonga otmoq" iborasini qatnashtirib 4 ta gapdan iborat matn tuzing. Tuzgan matningizda iboraning mazmuni ochiqlanishiga e'tibor qarating.

(Umumiy 5 ball)

Javob:

1-gap:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2-gap:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3-gap:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4-gap:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (1,25 ball)

17. Berilgan gaplarga oid quyidagi topshiriqlarni bajaring.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Italiya kinoteatrlariga xos bir tartib bor filmning yarmida yoki kulminatsiyasi oldidan namoyish to'xtatiladi.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang, ya'ni matn ichiga tinish belgisini qo'ying hamda javob qatoriga so'z bilan yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Afsuski biz ko'pincha huquqimizni talab qilamiz-u majburiyatlarimizni unutib qo'yamiz.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang, ya'ni matn ichiga tinish belgisini qo'ying hamda javob qatoriga so'z bilan yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

18. Berilgan gaplarga oid quyidagi topshiriqlarni bajaring.

*(Umumiy 5 ball)*

3. Milliy valyuta so'mga putur yetkazmaslik uni asrab-avaylash unga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerak.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang, ya'ni matn ichiga tinish belgisini qo'ying hamda javob qatoriga so'z bilan yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Sharqda esa ayol doimo erkak kishining do'sti yor oqila mehribon oilaviy tinchlikning rahnamosi sifatida ulug'langan.

*(Umumiy 5 ball)*

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang, ya'ni matn ichiga tinish belgisini qo'ying hamda javob qatoriga so'z bilan yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ *(2,5 ball)*

19. Quyidagi gapda ko‘makchi ifodalayotgan ma’noni javob qatoriga yozing.  
Tongga qadar she’rlarini tahrirlab chiqdi.

*(5 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_

20. Hunarmand yigit o‘z kasbini, uyini, bola-chaqasini qadrlaydi, u mehnat qilib tinch va osuda yashaydi.

Ushbu gapda uyushib kelayotgan gap bo‘laklarini javob qatoriga yozing.

*(5 ball)*

Javob: \_\_\_\_\_

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

Tekshiruvchi: \_\_\_\_\_

## 9-Variant

### O'RGIMCHAKSIMONLAR

#### 1-matn 1-5-savollar

##### I

O'rgimchaklarning ko'pchilik turlari yirtqich bo'lib, pashsha, chivin kabi hasharotlarni qirib foyda keltiradi. Ulardan qoraqurt va biy zaharli hisoblanadi. Qoraqurt O'rta Osiyo, Kavkaz va Qrimning dasht va cho'llarida uchraydi. Yosh urg'ochi qoraqurtning qorni ustida qizg'ish dog'lari bo'ladi. Qoraqurt tuproqdagi chuqurchalar ustiga, toshlar ostiga tutqich to'r to'qiydi. To'riga tushgan chigirtka, qo'ng'iz, qandala va boshqa hasharotlar bilan oziqlanadi. Uning zahari odam uchun xavfli, tuya va otlarga, ayniqsa, kuchli ta'sir etadi. Biy yirik (3–4 sm) o'rgimchak bo'lib, tuproqda, chuqurligi 60 sm gacha bo'lgan tik inda yashaydi. Tunda inidan chiqib hasharotlarni ovlaydi.

##### II

Falangalar. Ular o'rgimchaksimonlar orasida eng yirigi bo'lib, asosan issiq va quruq iqlimda hayot kechiradi. O'rta Osiyo cho'llarida keng tarqalgan yirik sariq falanganing kattaligi 6–7 sm ni tashkil etadi. Falanganing tanasi bosh, ko'krak va qorin qismlaridan iborat. Boshida bir juft ko'zi va og'iz organlari (jag'lari) joylashgan. Jag'lari o'tkir tirnoqqa, oyoq paypaslagichlari esa yurish oyoqlariga o'xshaydi. Sariq falanga yirtqich bo'lib, kechasi ovga chiqadi. U turli hasharotlar, mayda sudralib yuruvchilar bilan oziqlanadi. Uning zahar bezi bo'lmaydi. Falanga zararkunanda hasharotlarni qirib foyda keltiradi.

##### III

Chayonlar janubiy mamlakatlarda keng tarqalgan. O'rta Osiyo hududida sariq chayon ko'p uchraydi. Uning yassi tanasi bosh, ko'krak va qorin qismlariga bo'lingan. Boshining ustida bir juft yirikroq ko'zlari, ikki yonida esa besh juft mayda ko'zchalari bor. Ustki jag'lari o'rgimchaknikiga o'xshaydi, lekin oyoq paypaslagichlari qisqichga aylangan. Uzun qorin bo'limi keng oldingi va ingichka orqa qismlardan iborat. Qorning oxirgi bo'g'imida zahar bezi va nayzasi bor. Nayzaning uchiga zahar bezining yo'li ochiladi. Chayonlar kunduzi toshlar ostida, devor va yerdagi kovaklarda yashirib yotib, kechasi ovga chiqadi. Ular qorning ingichka qismini yuqori ko'tarib, tez yuguradi. O'rgimchaklarning ozuqasi har xil turdagi hasharotlar sanaladi. Yo'lida uchragan har xil bo'g'imoyoqlilar, asosan o'rgimchak va hasharotlarni qisqichlari yordamida tutib olib, zaharli nayzasi yordamida o'ldiradi. Chayonlar 20–30 tagacha tirik bola tug'ib ko'payadi. Chayonlar zararkunanda hasharotlarni qirib foyda keltiradi.

##### IV

Kanalar – mayda o'rgimchaksimonlar. Tanasi yassi oval shaklda, bo'g'imlarga bo'linmagan. Gavda bo'limlari qo'shilib ketgan. Tanasining oldingi uchida jag'lar va oyoq paypaslagichlari qo'shilishidan hosil bo'lgan sanchib so'ruvchi xartumchasi joylashgan. Ko'pchilik kanalar parazitlik qilib hayot kechiradi. Voyaga yetgan kanalar turli hayvonlar va odam tanasidan qon so'rib parazitlik qiladi. Mol kanasi it, qoramol va boshqa hayvonlar, shuningdek, odam qonini so'radi.

1. Quyida matn mazmuniga tayangan holda shakllantirilgan 4 ta gap keltirilmoqda. Ushbu gaplarning matn mazmuniga xos yoki xos emasligiga ko'ra javob qatoriga “xos” hamda “xos emas” so'zlaridan munosibini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Barcha o'rgimchaksimonlar zararkunanda hasharotlar bilan oziqlanib foyda keltiradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Falanga va chayonning jag'lari bir-biriga o'xshab ketadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Kanalarning sanchib qon so'ruvchi xartumchasi oyoq paypaslagichlar va jag'lardan tashkil topgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Biy o'rgimsimonlar oilasida eng yirigi hisoblanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan bo'lsa, o'sha gapni javob qatoriga ko'chirib yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

3. Quyida 4 ta ma'lumot keltirilmoqda. Ushbu ma'lumotlarning matn mazmunida aks etgan yoki aks etmaganini hisobga olgan holda "to'g'ri" hamda "noto'g'ri" so'zlaridan mosi bilan yakunlang.

(Umumiy 5 ball)

1. Qorni ustida qizg'ish ranglar bo'lishi qoraqurtning yosh urg'ochilarida kuzatiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Chayonlar xavfni sezganda dumini ko'tarib, nayzasi bilan hujum qilishga tayyorlanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Daraxt shirasini so'ruvchi kanalar ham parazitlik qilib hayot kechiradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Falangalar o'tkir tirnoqqa o'xshash jag'lari vositasida mayda hasharotlar(o'ljasi)ga jahar bezi yuboradi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Quyida 4 ta ma'lumot keltirilmoqda. Ushbu ma'lumotlarning matn mazmunida aks etgan yoki aks etmaganini hisobga olgan holda "to'g'ri" hamda "noto'g'ri" so'zlaridan mosi bilan yakunlang.

(Umumiy 5 ball)

1. Falanga, chayon hamda kanalarning tanalarining qismlarida tafovut uchramaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Ulg'aygan kanalar inson va turli jonzorlar qonini so'riydi, shuningdek, o'rgimchaksimonlar orasida tanasi kichik hasharotdir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Bir tomonida besh juft mayda ko'zchalari bor chayonlarning boshining tepasida bir juft yirikroq ko'zlari ham bo'ladi

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)



4. O'rtta Osiyoda ko'p uchraydigan sariq falanganing jag'lari tirnoqqa va oyoq paypaslagichlari qisqichga o'xshaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

5. Quyida 4 ta ma'lumot keltirilmoqda. Ushbu ma'lumotlarning matn mazmuniga muvofiq yoki muvofiq emasligiga tayanib, "to'g'ri" hamda "noto'g'ri" so'zlaridan munosibini yozing.

1. O'rgimchaksimonlar bir-birining o'ljasiga aylanishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. O'rgimchak ba'zi turlaridan biri yarim metrdan ortiq chuqurlikka uya solidi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Qoraqurt chaqqanda inson halok bo'lishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Kunduzi Chayonlar tosh tagida, devor va yerlardagi kovaklarda yotib o'ljasini tutadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

### Amir Temur va me'mor

#### 2-matn 6-10-savollar.

Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurub bitirishni niyat qilindi. Mohir me'morni chaqirib, o'sha kuniyoq ish boshlatmoqchi bo'libdi.

Me'mor bunday binoni shoshilich qurib bo'lmasligini qancha aytsa ham, Amir Temur ko'nmapti. Noiloj qolgan me'mor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini qo'ydirib, bir kechada g'oyib bo'libdi. Yer-u ko'kni qidirib topisholmabdi. Oradan ikki yil o'tkach haligi usta yana paydo bo'libdi-da, darg'azab Amirga :

- Siz istagan muddatda bu binoni qurib bitkazishim mumkin edi, ammo ming go'zal bo'lgani bilan uning umri uzoqqa bormasdi. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Siz aytgan binoni qurish uchun o'ylashga fursat kerak edi. Men ikki yil ko'rinmay ketgan davrimda shu haqda o'yladim. Qancha-qancha yurtlardagi qasri oliylarni ko'rib keldim. Ham boqiy, ham go'zal bo'lishi rejalarini tuzdim. Men bir bino yaratmoqchimanki, uning tepasida faqat osmon bo'ladi. Osmon xalaqit bermasa, uni yana ham balandroq ko'tarishim mumkin bo'lardi, - deb javob qilgan ekan.

6. O'ng tomondagi so'zlarni chap tarafdagi izohlari bilan to'g'ri moslashtiring.

(Umumiy 5 ball)

So'zlar	Izohlar	Javoblar
1) boqiy	A) makonni tashkil qiluvchi	
2) me'mor	B) imorat va inshootlarning ost qismi	
3) madrasa	C) mangu	
4) poydevor	D) oliy o'quv dargohi	

7. Binoni qurib bitkazishim.

Ushbu soʻz birikmasi qaysi kelishik qoʻshimchasi orqali bogʻlangan va bogʻlanish usulini yozing. (5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

8. Berilgan fikrlarni matn asosida toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligini tegishli ustunda koʻrsating va yaʼni toʻgʻri va notoʻgʻri soʻzlaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball; har bir toʻgʻri javob uchun 1 balldan)

T/r	Fikrlar	Toʻgʻri (A)	Notoʻgʻri(B)
1.	Mohir meʼmorni chaqirib, oʻsha kuniyoq ish boshlatmoqchi boʻlibdi.		
2.	Usta bunday binoni shoshilinch qilib boʻlmasligini aytibdi		
3.	Yer-u koʻkni qidirib topisholmabdi.		
4.	Ham boqiy, ham goʻzal boʻlishi rejalarini tuzdim.		
5.	Men bir bino yaratmoqchi edim, tepasida faqat osmon boʻlsin.		

9. Matnda qaysi soʻzlar imlosida xatolik uchraydi. (Avval soʻzning xato yozilgan variantini, soʻng shu soʻzning toʻgʻri yozilishini koʻrsating. Matnda 5 ta soʻz imloviy xatolikka uchragan. Bu qoʻshma soʻzlar imlosiga tegishli emas.

(Umumiy 5 ball; har bir toʻgʻri javob uchun 1 balldan)



10. Quyidagi gapda koʻmakchi ifodalayotgan maʼnoni javob qatoriga yozing.

Tong otgan sari sheʼrlarini tahrirlab chiqdi.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

11. Ajratib koʻrsatilgan har uchala soʻz bilan maʼnodoshlik hosil qila oluvchi soʻzni yozing.



12. Berilgan gapda qoʻllanilishi lozim boʻlgan tinish belgilarining toʻgʻri ketma-ketligini yozing.  
Hay-hay ukam shunday boobroʻ odam sizni koʻrgani kelsa-yu siz xursand boʻlish oʻrniga xafa boʻlasiz

(5 ball)

J: \_\_\_\_\_

13. Gapda qaysi qoʻshimchanning qoʻllanilishi bilan bogʻliq uslubiy xatolik kuzatilgan?

Taqdir taqozosi bilan badaviylar oilasida tug'ilsam, ellik darajali issiqqa quturgan qum bo'roni men uchun eng go'zal manzara bo'lur edi.

(5 ball)

J: \_\_\_\_\_

14. Gapdagi ajratib ko'rsatilgan birlikning sintaktik vazifasini yozing.

Otinoyi, ko'pincha, o'z ishi bilan shug'ullanar, darsda, asosan, xalifa (hozirgi til bilan aytganda, sinf boshlig'i) rahbarlik qilar, sho'xlik qilgan qizlarga ham xalifaning o'zi jazo berar edi.

(5 ball)

J: \_\_\_\_\_

15. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishini tahlil qiling.

Haqiqiy iste'dod boshqalar ko'rmagan narsani topadi va o'sha "narsa" insonni, xalqni, boringki, jamiyatni qayoqqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi.

(Umumiy 5 ball)

a) ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi so'zga tobelangan?

J: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

b) ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi so'zlar bilan teng aloqada?

J: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

16. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.

1. Maktabimizda sport klubi doimiy faoliyat olib bormoqda.

2. Klub a'zolari yildan yilga turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

(Umumiy 5 ball)

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to'g'ri bog'lash mumkin?

J: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

b) natijada qo'shma gapning qaysi turi hosil bo'ladi?

J: \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

17. Berilgan gaplarga oid quyidagi topshiriqlarni bajaring.

(Umumiy 5 ball)

1. Italiya kinoteatrlariga xos bir tartib bor filmning yarmida yoki kulminatsiyasi oldidan namoyish to'xtatiladi.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang, ya'ni matn ichiga tinish belgisini qo'ying hamda javob qatoriga so'z bilan yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Afsuski biz ko'pincha huquqimizni talab qilamiz-u majburiyatlarimizni unutib qo'yamiz.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang, ya'ni matn ichiga tinish belgisini qo'ying hamda javob qatoriga so'z bilan yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

18. Navbat kelganda yozgan ishimizni og'zaki gapirib berdik, ikkalamiz ham yaxshi baho oldik. Ushbu gapda qatnashgan yasama so'zlar haqida berilgan ma'lumotlarni "ha" yoki "yo'q" tarzida ifodalang.

(Umumiy 5 ball)

1. Yasama otdan yasalgan sifat qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Otdan yasalgan fe'l qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Ushbu gapda yasama so'zning ega vazifasini bajarishi kuzatiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Ushbu gapdagi barcha yasama so'zlar sifat turkumiga oid.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

19. Kech bo'lganda olim o'ziga yuklatilgan qismni **yozi**b bo'lgandi.

Yuqoridagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zning asosi bilan shakldosh bo'lgan kamida 2 ta so'zni qatnashtirib alohida-alohida 2 ta gap tuzing.

1. \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

2. \_\_\_\_\_ (2,5 ball)

20. Quyida berilgan so'zlarning uchinchisini yozing, natijada sinonimik qator hosil bo'lishiga erishing.

(Umumiy 5 ball)

1) xayr – sadaqa – \_\_\_\_\_

2) voqea – sinoat – \_\_\_\_\_

3) gavgdali – jussali – \_\_\_\_\_

4) ohista – sekin – \_\_\_\_\_

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

Tekshiruvchi: \_\_\_\_\_

## 10-Variant

### I. O‘QIB TUSHUNISH:

#### 1- matn 1-5-savollar

1

**Sport** — jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarning turli majmualari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish tizimi. Sportning maqsadi kishilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish, shuningdek, sport musobaqalarida yuqori natija va g‘alabalarga erishishdir. Dastlabki sport musobaqalari Yunonistonda bo‘lib o‘tgan. Xalqaro olimpiada qo‘mitasi tashkil qilinganidan keyin sport juda tez rivojlana boshladi. 1896-yilda 1-zamonaviy Olimpiada o‘yinlari o‘tkazildi.

2

Sportning asosiy 3 ta o‘zaro bog‘liq tashkiliy shakllari mavjud: ommaviy havaskorlik; o‘quv fani sifatidagi sport; yuqori natijalar sporti. Ommaviy havaskorlik sporti — insonning jismoniy takomillashuvi sharti, shuningdek, u kishilarning yoshi, salomatligining holati, jismoniy rivojlanish darajasiga ko‘ra chegaralanadi. O‘quv fani sifatidagi sport — barcha turdagi ta‘lim muassasalari va qurolli kuchlarda harbiy-jismoniy tayyorgarlik dasturlariga kiradi. Yuqori natijalar sporti eng yaxshi sport ko‘rsatkichlari (rekordlar)ga erishish uchun sharoit yaratadi, insonning jismoniy tayyorgarligini namoyish etadi, jismoniy tayyorgarliklarning samarali vosita va usullarini ommaviy amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. Bu sport rekordlarga erishishga yordam beradi.

3

Taraqqiyot jarayonida sport jismoniy tarbiya doirasidan chiqib, mustaqil umummadaniy, siyosiy, estetik, iqtisodiy ahamiyat kasb etdi. Sport do‘stona xalqaro aloqalarni kengaytirishga, xalqlarning o‘zaro bir-birini tushunishi va do‘stligi rivojlanishiga xizmat qilmoqda. XIX asr o‘rtalaridan bir necha G‘arb mamlakatlarida professional sport rivojlana boshladi. U tomoshabopligi, biznesga aylanib, katta daromad manbai bo‘lib borayotganligi bilan ajralib turadi.

4

Sport turlarining 2 asosiy guruhi mavjud: milliy sport turlari va xalqaro sport turlari. Milliy sport turlari har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati va dam olish sharoiti asosida rivojlangan. Xalqaro sport turlari muayyan sharoitlarda musobaqalar o‘tkazishning umumlashtirilgan tizimlaridan iborat bo‘lib, bunda musobaqa ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini, natijalarni hisobga olish va baholashni xalqaro miqyosda bir xil tartibga keltirish, yagona qoidalardan foydalanishga asoslangan maxsus cheklashlar nazarda tutiladi. Sport bilan shug‘ullanishda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish davlat organlari, xalqaro sport tashkilotlari tomonidan man etilgan vositalarni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi. Yuqori sport ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida stimulyatorlardan, doping moddalaridan, Xalqaro olimpiada qo‘mitasi man etgan boshqa vositalardan foydalangan sportchi musobaqalardan chetlashtiriladi.

1. Quyida 4 ta ma‘lumot keltirilmoqda. Ushbu ma‘lumotlarning matnda aks etgan yoki aks etmaganiga tayanib “to‘g‘ri” hamda “noto‘g‘ri” javoblaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1) XIX asrga kelib sport jismoniy tarbiya doirasidan chiqib, iqtisodiy ahamiyat kasb etdi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2) insonning jismoniy takomillashuvi sharti sportning o'quv fani sportiga doir sanaladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3) Olimpiada o'yinlari tomoshaboblighi, biznesga aylanib, katta daromad manbayi bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4) eng yaxshi sport ko'rsatkichlari (rekordlar)ga erishish uchun sharoit yaratish yuqori natijalar sportiga mansub

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Quyida 4 ta ma'lumot keltirilmoqda. Ushbu ma'lumotlarning matnda aks etgan yoki aks etmaganiga tayanib "aks etgan" hamda "aks etmagan" javoblaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1) Dastlabki sport musobaqalari Yunonistonda bo'lib o'tgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2) har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati bilan bog'liq sporti bo'lishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3) barcha turdagi ta'lim muaasalarida sportning milliy turidan foydalaniladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4) sportda man etilgan vositalar ham bo'lishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Matndagi ajratib ko'rsatilgan "shuningdek" so'zi nima sababdan qo'llanganini yozing.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

4. Raqamlangan qaysi matn parchasida uslubiy xatolik mavjud bo'lsa, matnning o'sha qism raqamini yozing.

(5 ball)

Javob: \_\_\_\_\_

5. Matnning 2-qismida ajratib ko'rsatilgan fe'l turkumiga mansub so'zni morfemik tahlil qiling.

(5 ball)

---

## MUALLIFLIK HUQUQI

### 2-matn. 6-10-savollar.

Mualliflik huquqi – keng ma'noda – fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, foydalanish va qonuniy himoya qilishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar

yig'indisi; fuqarolik huquqining bir bo'limi. Tor ma'noda – asar muallifiga tegishli bo'lgan va qonunlarda mustahkamlanib qo'yilgan shaxsiy va mulkiy huquqlar tizimini tashkil etadi. Mualliflik huquqi bo'yicha munosabatlar har bir davlatga xos qonunlar va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi.

Mualliflik huquqi bo'yicha 1952-yilgi Jahon (Jeneva) konvensiyasi hamda adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi (1886) mavjud. Bern konvensiyasi Mualliflik huquqini himoya qilishning qat'iy tizimini o'zida ifodalaydi. O'zbekistonda Mualliflik huquqining asosiy normalari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1041–1073-moddalar) va «Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (1996-yil 30-avgust)da belgilangan. Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadrdimmati, shuningdek, ifodalash usuli (qo'lyozma, tasvir, audio, video yozuv, haykal va h. k.)dan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Barcha turdagi kompyuterlar uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari ham mualliflik huquqi obyekti hisoblanadi. Muallif o'z asariga nisbatan quyidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega: muallif sifatida e'tirof etilish huquqi; asarni o'z ismi, taxallusi yoki anonim tarzda e'lon qilish huquqi; asar daxlsizligiga bo'lgan huquq; asardan har qanday shaklda va usulda foydalanish huquqi; asarni e'lon qilish huquqi; asardan foydalanilganlik uchun haq olish huquqi; asarni tasarruf qilish huquqi. Asardan muallif yoki uning merosxo'ri bilan mualliflik shartnomasi tuzish orqaligina foydalanish mumkin. Chop etilgan begona asardan muallifning roziligisiz va mualliflik haqini to'lamagan holda shaxsiy maqsadlarda foydalanishga, basharti bunda asardan normal foydalanishga ziyon yetmaydigan va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetmaydigan bo'lsa, yo'l qo'yiladi. Asardan muallifning ism-sharifini va olingan manbani ko'rsatgan holda hamda asardan normal foydalanishga zarar yetkazmaslik va muallifning qonuniy manfaatlarini kamsitmaslik sharti bilan ilmiy tadqiqotlarda, ta'lim va o'quv nashrlarida, axborot maqsadlarida qisman yoki to'liq takrorlashga ruxsat beriladi. Asarga bo'lgan mualliflik huquqi u yaratilgan paytdan boshlab amal qiladi. Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va vafotidan keyingi yilning 1 yanvaridan boshlab 50 yil davomida amal qiladi. Muallif vafotidan keyingi mualliflik huquqi uning merosxo'rlariga tegishli bo'ladi va meros bo'yicha bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tadi. Mualliflik huquqining amal qilish muddati tugaganidan keyin asar ijtimoiy boylikka aylanadi, ya'ni har qanday shaxs mualliflik haqini to'lamagan holda erkin foydalanishga haqli. Mualliflik shaxsiy nomulkiy huquqlari muddatsiz amal qiladi.

Mualliflik huquqi buzilgan taqdirda u sud orqali himoya qilinadi. Mualliflik huquqi buzilishining keng tarqalgan turlariga plagiat (ko'chirmachilik, madaniy o'g'irlik), asardan muallif ruxsatisiz tijorat maqsadlarida foydalanish (madaniy qaroqchilik) kiradi. Bunday hollarda huquqbuzar muallif huquqlarini tiklashi, unga yetkazilgan zararlarni to'lashi lozim. Mualliflik huquqini buzishga qaratilgan vositalar (asarning kontrafakt nusxalari) yo'q qilib tashlanadi. Mualliflik huquqi egasi o'ziga tegishli huquqlarni o'z xohishiga ko'ra shaxsan amalga oshirishga haqlidir. Huquq egasidan boshqa shaxslar mualliflik huquqlarini faqat huquq egasining roziligi bilan va u bergan vakolatlar doirasida boshqarishlari mumkin (masalan, ishonchnoma orqali). Mualliflik huquqi egalari o'z zimmasiga mualliflik huquqlarini boshqarish yuklatiladigan tashkilotlarni tuzishlari mumkin. Muallifning o'z asariga nisbatan mutlaq huquqlari (mulkiy huquqlar) tijorat muomalasida harakatda bo'lishi, haq evaziga boshqa shaxslarga to'liq yoki qisman o'tkazilishi, hadya qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mualliflik huquqini o'zlashtirganlik, hammualliflikka majbur etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Mualliflik huquqini



muhofaza etishni tashkiliy huquqiy ta'minlash, bu borada davlat siyosatini amalga oshirish uchun O'zbekistonda mualliflik huquqini himoya qilish agentligi faoliyat ko'rsatadi.

6. Quyida mualliflik huquqiga 4 ta ta'rif keltirilmoqda. Ushbu ta'riflarning "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" ekanini javob qatoriga yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Tijorat maqsadida qonunlashtirilgan fuqarolik huquqining bir bo'limi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Yozuvchi vafot etganda kuchga kiruvchi huquqlar tizimi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. Ijodkorning o'z asariga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Yozuvchi shaxsini va u yaratgan asarni sug'urtalovchi huquq.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

7. Mualliflik huquqi buzilganda qanday chora-tadbirlar ko'rilishiga oid 4 ta javob matni keltirilmoqda. Javob qatoriga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" so'zlaridan mosini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Sud orqali mualliflik huquqi himoya qilinadi va muallif huquqini buzgan shaxsga nisbatan jazo choralari ko'riladi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Mualliflik huquqi egalari o'z zimmasiga mualliflik huquqlarini boshqarish yuklatiladigan tashkilotlarni tuzishadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

3. Mualliflik huquqi buzilgan taqdirda mualliflik huquqi xalqaro konvensiyalar orqali himoya qilinadi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

4. Mualliflik huquqini buzishga qaratilgan asarning kontrafakt nusxalari dalil sifatida saqlab qo'yiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

8. Muallif o'ziga berilgan huquqdan qanday ishlarni amalga oshirishda foydalanishi mumkinligiga oid bo'lgan 4 ta gap keltirilmoqda. Javob qatoriga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" so'zlaridan mosini yozing.

*(Umumiy 5 ball)*

1. Muallif mualliflik huquqini himoya qilish agentligini tuzishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ *(1,25 ball)*

2. Muallifning o'z asariga nisbatan mulkiy huquqlari haq evaziga boshqa shaxslarga hadya qilinishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Asarga sarlavha qo'yishdagina foydalanishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Muallifning o'zi shaxsiy nomulkiy huquqlaridan ma'lum bir muddatdagina foydalana oladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

9. Quyida yuqoridagi matnga oid ma'lumotlar berilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilingan yoki qilinmaganiga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" so'zlaridan mosini yozing.

(Umumiy 5 ball)

1. Tijorat maqsadida muallif ruxsatisiz asaridan foydalanish plagiat, ya'ni ko'chirmachilik, madaniy o'g'irlikdir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Asardan muallifning ism-sharifini va olingan manbani ko'rsatgan holda ilmiy tadqiqotlarda, ta'lim va o'quv nashrlarida, axborot maqsadlarida qisman yoki to'liq takrorlashga ruxsat beriladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Mualliflik huquqi egasi o'ziga tegishli huquqlarni o'z xohishiga ko'ra shaxsan amalga oshirishga haqlidir.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Mualliflik huquqining amal qilish muddati tugaganidan keyin asar ijtimoiy boylikka aylanadi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

10. Quyida matnga oid 4 ta ma'lumot keltirilmoqda. Ushbu ma'lumotlarni o'qib, javob qatoriga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" jumllaridan mosini yozing.

1. Har qanday shaxs mualliflik haqini to'lamagan holda u yozgan asardan erkin foydalanishga haqli.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Mualliflik huquqi bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazilmaydi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. Mualliflik huquqi muallifning u hayot bo'lgan chog'idagina amal qiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. Asarga bo'lgan mualliflik huquqi u yaratilgan vaqtdan boshlab amal qiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

11. Quyida berilgan so'zlarni orfografik me'yor talablari asosida qayta yozing.

(5 ball; har bir to'g'ri yozilgan so'z uchun 0,5 balldan)

oshqavoq, qorovul, mehmon, qovurg'a, ruhiyat, torozibon, urinmoq, mazali, ochiqdan ochiq, mexmon.

Javob: \_\_\_\_\_

12. Quyida berilgan so'zlarning uchinchisini yozing, natijada sinonimik qator hosil bo'lishiga erishing.

(Umumiy 5 ball)

1) dunyo – olam – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2) ko'p – talay – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3) azob – iztirob – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4) rishta – aloqa – \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

13. Quyida keltirilgan gaplarda turli qo'shimchalar tushirib qoldirilgan. Ushbu qo'shimchalarni tiklang hamda gaplarni tegishli o'ringa ko'chirib yozing.

(Umumiy 5 ball)

a) Barcha tillar aniq...ka intila..., aniqlik esa qisqalik, ixcha...likni talab etadi.

b) Kitoblar kek...da eng yaxshi do'st, ayni paytda yosh...ning eng aziz rahnamo...dir.

c) Nozima bu yil yoz... ta'til... qishloqdagi buvisi...ga ketmoqchi.

d) Lola... yashil maysa... uzra bo'y tarat..., bosh egadi.

1. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4. \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

14. Yoshlarimizni bilimli, vatanparvar, keng mushohadali, aqlli va faol shaxs sifatida tarbiyalash bizning vazifamizdir.

Ushbu gapda qatnashgan yasama so'zlar haqida berilgan ma'lumotlarni "ha" yoki "yo'q" tarzida ifodalang.

(Umumiy 5 ball)

1) Yasama otdan yasalgan sifat qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2) Otdan yasalgan fe'l qatnashgan.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

3) Ushbu gapda yasama so'zning ega vazifasini bajarishi kuzatiladi.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

4) Ushbu gapdagi barcha yasama so'zlar sifat turkumiga oid.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

15. Bir lagan osh to'rt kishidan ham **ortib** qoldi.

Yuqoridagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zning asosi bilan shakldosh bo'lgan kamida 2 ta so'zni qatnashtirib alohida-alohida 2 ta gap tuzing.

(Umumiy 5 ball)

1. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (2,5 ball)

2. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (2,5 ball)

16. *Kech bo'lganda olim o'ziga yuklatilgan qismni **yozi** bo'lgandi.*

Yuqoridagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'zning asosi bilan shakldosh bo'lgan kamida 2 ta so'zni qatnashtirib alohida-alohida 2 ta gap tuzing.

1. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (2,5 ball)

2. \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (2,5 ball)

17. Berilgan gaplarga oid quyidagi topshiriqlarni bajaring.

(Umumiy 5 ball)

1. Shuni unutmangki quvonch g'amning kelishi g'ildirakning aylanishiga o'xshaydi.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Oy tutilgan pallada to'lin oy ko'rinmaydi lekin keyin avvalgisidan ham go'zal munavvar bo'lib ko'rinadi.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

18. Berilgan gaplarga oid quyidagi topshiriqlarni bajaring.

(Umumiy 5 ball)

1. So'z yovuzlarni yakson etadigan qal'alarni yiqadigan ko'zga ko'rinmas quroldir.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

2. Darhaqiqat til do'stlikni hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir.

a. Tushirib qoldirilgan tinish belgisini o'z o'rniga tiklang.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

b. Tiklagan tinish belgingizning qo'llanilish sababini izohlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_ (1,25 ball)

19. Quyidagi gapda ko‘makchi qanday ma‘noni ifodalagan?

Ular televizor ustida janjallashdi.

(5 ball)

---

20. Quyidagi parcha haqida berilgan to‘g‘ri hukm(lar) oldiga “1” raqamini, noto‘g‘ri hukm(lar) oldiga esa “0” raqamini qo‘ying.

Hunarmand yigit o‘z kasbini, uyini, bola-chaqasini qadrlaydi, u mehnat qilib tinch va osuda yashaydi.

(Umumiy 5 ball)

(1,25 ball) \_\_\_\_\_ tub va yasama otlar qatnashgan;

(1,25 ball) \_\_\_\_\_ otlarning tuzilishiga ko‘ra bir turi qatnashgan;

(1,25 ball) \_\_\_\_\_ shaxs, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon otlari qatnashgan;

(1,25 ball) \_\_\_\_\_ barcha otlar bir xil bo‘lak vazifasini bajargan.

**Baholash****Maktab nomi:** \_\_\_\_\_**Fan nomi:** \_\_\_\_\_**Sana:** \_\_\_\_\_**O'quvchining FISH:** \_\_\_\_\_

Variant raqami	Topshiriq raqami	Maksimal ball	O'quvchi olgan ball	Izoh
	1	5 ball		
	2			
	3			
	4			
	5			
	6			
	7			
	8			
	9			
	10			
	11			
	12			
	13			
	14			
	15			
	16			
	17			
	18			
	19			
	20			
	O'quvchi olgan jami ball			

Tekshiruvchi: \_\_\_\_\_